В отдельных случаях суицидальное поведение детей развивалось на фоне аддиктивных расстройств в семье, в частности алкогольной зависимости отца или, реже, матери. Аддиктивное поведение родителей может негативно влиять на эмоциональный климат семьи и повышать риск формирования суицидальных тенденций у детей и подростков [4].

Значимыми факторами риска являются и психотравмирующие ситуации в образовательной среде: формальное и эмоционально отчуждённое отношение, чрезмерно высокие требования, буллинг, троллинг, кибербуллинг и харассмент [8]. Вместе с тем наличие психотравмирующей ситуации само по себе не является достаточным условием для формирования суицидального поведения. Существенную роль играют индивидуально-психологические особенности личности: низкий уровень самоконтроля, эмоциональная

нестабильность, импульсивность, недостаток жизненного опыта, трудности в преодолении проблемных ситуаций и неспособность конструктивно снижать нервно-психическое напряжение.

У детей и подростков с суицидальными намерениями нередко наблюдается неблагоприятное социальное окружение: неблагополучные семейные отношения, чувство одиночества и ненужности, отсутствие поддержки со стороны взрослых или одного из родителей. Такие внешние поводы, как унижение сверстниками, обида на взрослых, переживание несправедливости или различные ограничения, могут становиться непосредственными триггерами на фоне длительных психотравмирующих переживаний.

Для понимания причин суицидального поведения важен анализ его мотивов и обстоятельств. Согласно классификации акцентуаций характера А. Е. Личко, суицидальные попытки чаще встречались при истероидном типе — 22 %, эпилептоидном — 21 %, циклоидном — 14 % и эмоционально-лабильном — 11 % случаев (рис. 3).




Рисунок. 3. Классификации акцентуаций характера по Личко А.Е.

Усугубляющим фактором являлся и высокий уровень аутогрессии самого подростка.

У детей и подростков до 18 лет бывает много так называемых парасуицидальных поступков: фиксации на темах смерти, страх и любопытство к смерти, суицидальные мысли, шантажно-демонстративные суицидальные поступки. Но чаще всего действия подростков направлялись не на самоуничтожение, а на восстановление нарушенных социальных отношений.

Психологический смысл детского и подросткового суицидов – крик о помощи, стремление привлечь внимание к своему страданию. Настоящего

желания умереть нет, представление о смерти крайне неотчетливо, инфантильно. Смерть представляется в виде желательного длительного сна, отдыха от невзгод, способа попасть в иной мир, так же она видится средством наказать обидчиков.

Необходимо обратить внимание и на характерные черты детского и подросткового суицидального поведения:

1. Парасуициду часто предшествуют кратковременные, объективно нетяжелые конфликты в семье или в учебном заведении.

2. Часто, казалось бы, незначительный конфликт воспринимается подростками как крайне значимый и травматичный, вызывая внутренний кризис и драматизацию событий.

3. Суицидальное поведение достаточно демонстративно, в нем есть признаки «игры на публику».

4. Само суицидальное поведение регулируется скорее порывом, аффектом, часто в нем нет продуманного плана совершения суицида.

5. Средства самоубийства выбраны неумело – малотоксичные или неконцентрированные вещества, неглубокие самопорезы и т.п.

6. Суицидальный поступок воспринимается и воспроизводится подростком в романтически-героическом ореоле: как смелый вызов, как решительное действие, как мужественное решение.

Признаками, повышающими вероятность суицидальной попытки у подростка, являются:

– серьёзные конфликты в учебном заведении или семье;
– тяжёлые утраты, потери, близких, друзей, несчастная любовь;
– побеги из дома;
– нарушения сна;
– злоупотребление психоактивными веществами;
– разговоры о смерти, записки и заявления о самоубийстве;
– резкие изменения во внешности и поведении;
– наличие свободного доступа к сильнодействующим лекарственным средствам или ядовитым веществам;
– потеря аппетита, потеря веса;
– склонность к уединению и отчуждению;
– хаотичное, некорректное, не свойственное ему поведение;
– чувство безнадёжности, тревоги, снижение настроения, плач без причины, апатия;
– утрата интереса к любимым занятиям;
– увлечение азартными играми, долги.

Учитывая вышеизложенное, становится очевидным, что основными причинами суицидальных попыток у подростков являлись: сложная внутрисемейная ситуация, нарушение адаптационно-приспособительных

свойств при возникновении стрессовых ситуаций, депрессия, сопровождающаяся чувством безнадежности, несерьезное и невнимательное отношение взрослых к решению проблем подростков, а также нарушение воспитательной функции в семье, в результате чего происходила «цепная реакция», которая приводила к суицидальным мыслям и действиям со стороны подростка (в силу его переходного периода), направленная на самоповреждение, что требует последовательного, бережного и внимательного наблюдения за ним со стороны близких и окружающих.

Обсуждение и практические рекомендации. В подростковом и юношеском возрасте может усиливаться интерес к вопросам смерти, смысла жизни и человеческого существования. Однако подобные размышления характерны далеко не для всех подростков.

Суицидальное поведение детей и подростков нередко связано с недостатком жизненного опыта, трудностями в определении жизненных ориентиров и сужением восприятия проблемы в стрессовой ситуации. В отдельных случаях фактором риска может выступать аддиктивное поведение родителей, в том числе злоупотребление алкоголем [4].

Суицидальное и парасуицидальное поведение несовершеннолетних, как правило, формируется под влиянием комплекса биологических, психологических, семейных и социальных факторов [4,9]. К наиболее значимым относятся хронические внутрисемейные конфликты, эмоциональное отвержение ребенка, дефицит поддержки, насилие, гиперопека либо эмоциональная холодность и игнорирование потребностей ребенка [2,3,7].

Важную роль играют и психотравмирующие факторы образовательной среды: формальное и эмоционально отчужденное отношение, чрезмерно завышенные требования, буллинг, кибербуллинг, троллинг и харассмент [3,6,8]. Вместе с тем сведение причин детско-подросткового суицидального поведения исключительно к школьной среде является упрощением, поскольку особенности эмоционального реагирования и способы преодоления стресса во многом формируются в семье и в раннем детском опыте [2,8].

В основе суицидального поведения могут лежать переживания одиночества, безнадежности, беспомощности, чувства вины, тревоги и собственной ненужности. Агрессия, грубость, несправедливость и унижение со стороны взрослых или сверстников способны усиливать эмоциональное напряжение и ощущение безысходности.

Несуицидальные самоповреждения также рассматриваются как один из факторов риска последующих суицидальных попыток. Определенное значение имеет и семейная история суицидального поведения.

Профилактику суицидального поведения условно подразделяют на первичную, вторичную и третичную. Первичная профилактика направлена на

раннее выявление и предупреждение факторов риска. Вторичная профилактика предполагает своевременную помощь детям и подросткам с выраженными суицидальными намерениями или признаками высокого риска. Третичная профилактика ориентирована на предупреждение повторных суицидальных попыток и последующую психолого-педагогическую поддержку.

Особого внимания требуют дети и подростки, находящиеся в состоянии выраженного эмоционального напряжения, депрессивного настроения или переживающие сложные жизненные обстоятельства [8]. Важной задачей специалистов является своевременное выявление источников психологического напряжения, причин внутриличностного конфликта и организация необходимой психолого-педагогической поддержки.

Выводы. Проведённое исследование показало, что ведущими факторами формирования парасуицидального поведения у детей и подростков являлись хронические внутрисемейные конфликты, эмоциональная депривация, нарушения детско-родительских отношений, школьная и социальная дезадаптация, а также тревожно-депрессивные и эмоционально-нестабильные состояния. Установлено, что в большинстве случаев суицидальные попытки несовершеннолетних носили импульсивный и демонстративно-шантажный характер и были направлены не столько на прекращение жизни, сколько на попытку избежать психотравмирующей ситуации, восстановить нарушенные социальные отношения или привлечь внимание к собственному эмоциональному страданию.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что детско-подростковый парасуицид представляет собой многофакторный клинико-психологический феномен, формирующийся под воздействием совокупности семейных, личностных и социальных детерминант. Особое значение в развитии аутоагрессивного поведения имели эмоциональная нестабильность, низкая стрессоустойчивость, дефицит поддержки со стороны значимых взрослых, а также неблагоприятная психоэмоциональная атмосфера в семье и образовательной среде.

В связи с этим профилактика суицидального поведения несовершеннолетних должна носить комплексный междисциплинарный характер и включать ранний психологический скрининг, своевременное выявление эмоциональной дезадаптации, системную работу с семьёй, а также активное участие образовательных учреждений, психологических и медицинских служб в формировании безопасной и поддерживающей среды для детей и подростков.

Список литературы:

1. Акалаев Р.Н., Миннуллин И.П., Лодягин А.Н., Асанова Л.Р., Шоумаров Г.Б., Акалаева А.А., Хонбабаева Р.Х. и др.Т43.0-Т43.9 гуруҳи дори

воситаларидан ўткир заҳарланиш (антидепрессантлар, нейролептиклар, психостимуляторлар ва нормомиметик дори воситалар), шифокорлар учун қўлланма (клиник протоколлар), Р.Н. Акалаев умумий тахрири остида, Тошкент. 2023; 7 боб: С. 94-120.

2. Попов Ю. В., Пичиков А. А. Суицидальное поведение у подростков - Санкт-Петербург: СпецЛит. 2017; 366 с.

3. Рахимова И.И., Сафарова Э.М. Безвозвратный шаг в никуда: сравнительный анализ суицида. Особые случаи у подростков. Вестник интегративной психологии. 2022; 25: С. 214-220.

4. Розанов В.А., Прокопович Г.А., Лодягин А.Н., Синенченко А.Г. Современные модели суицидального поведения подростков и молодежи – значение для практического здравоохранения. Девиантология. 2020; 4 (1): С. 45-54.

5. Хонбабаева Р.Х., Акалаева А.А., Матвеева А.А. Суицидал тенденцияларнинг пайдо булишида интеллектуал ривожланишнинг ўрни ва ахамияти // Биология ва тиббиёт муаммолари халкаро илмий журнал. 2019; 4.1 (114): С. 155-156.

6. Шоумаров Г.Б., Палуанова З.Д. Факторы суицида и их особенности в Республике Каракалпакстан // Современное образование (Узбекистан). 2020; №11 (96). (https://cyberleninka.ru/article/n/faktory-suitsida-i-ih-osobennosti-v-respublike-karakalpakstan - дата обращения: 02.02.2026).

7. Юлдашев Ш., Отамуротов Р., Сафарова Э. «Психопрофилактика и диагностика суицидальных случаев среди несовершеннолетних, Ташкент. 2022.

8. Luchsheva L., Akalayeva A., Honbabayeva R. Suitsidning oldini olishda maktab, oila va sog‘liqni saqlash muassasalari hamkorligi. “Pedagogika” jurnali. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2019; 2: C. 44-49.

9. Moller C.I., Davey C.G., Badcock P.B. et al. Correlates of suicidality in young people with depressive disorders: A systematic review. The Australian & New Zealand Journal of Psychiatry. 2022; 56 (8): C. 910-948.

10. Qarshiboyeva, G.A. Suitsidal xulq-atvorning nazariy asoslari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. 2023; (I). (https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8883 - дата обращения: 03.04.2026)

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 378.147:004

Abdusamatova Gulchexra Zoirovna,
PROFI UNIVERSITY
"Axborot texnologiyalari va tizimlari" kafedrasi katta o'qituvchisi

"RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANINI O'QITISH JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Raqamli ta'lim texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik tayyorgarlikning mazmuni raqamli vositalardan foydalanish bilan birga, ta'lim maqsadini belgilash, metod va texnologiyalarni tanlash, elektron resurs yaratish, baholash va refleksiya qilish ko'nikmalarini qamrab olishi asoslanadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar, shuningdek, tahlil, kuzatish, so'rovnoma va tajriba-sinov metodlaridan foydalaniladi. LMS, elektron portfolio, interaktiv topshiriqlar, raqamli baholash va mikroo'qitish vositalarining metodik kompetentlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada fan mazmuni, amaliy topshiriqlar, baholash va refleksiyani takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: metodik kompetentlik, raqamli ta'lim texnologiyalari, bo'lajak o'qituvchi, raqamli kompetentlik, raqamli didaktika, LMS, elektron portfolio, interaktiv ta'lim, raqamli baholash, mikroo'qitish, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ЦИФРОВЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ»

Аннотация. В статье рассматриваются возможности развития методической компетентности будущих учителей в процессе преподавания дисциплины «Цифровые образовательные технологии». Обосновывается, что в условиях цифровой трансформации педагогическая подготовка должна включать не только навыки использования цифровых средств, но и умения определять цели обучения, выбирать соответствующие методы и технологии, создавать электронные образовательные ресурсы, осуществлять оценивание и рефлексию. В исследовании применяются компетентностный, деятельностный и системный подходы, а также методы анализа, наблюдения, анкетирования и педагогического эксперимента. Анализируются возможности LMS, электронного портфолио, интерактивных заданий, цифрового оценивания и микрообучения в развитии методической компетентности. В

результате предлагаются методические рекомендации по совершенствованию содержания дисциплины, практических заданий, оценивания и рефлексии.

Ключевые слова: методическая компетентность, цифровые образовательные технологии, будущий учитель, цифровая компетентность, цифровая дидактика, LMS, электронное портфолио, интерактивное обучение, цифровое оценивание, микрообучение, рефлексия, профессиональная подготовка.

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING THE METHODOLOGICAL COMPETENCE OF PROSPECTIVE TEACHERS IN THE PROCESS OF TEACHING THE COURSE "DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES"

Abstract. This article examines the possibilities of developing the methodological competence of future teachers in the process of teaching the course "Digital Educational Technologies." It is substantiated that, in the context of digital transformation, teacher training should encompass not only the ability to use digital tools but also the skills to define learning objectives, select appropriate methods and technologies, create electronic educational resources, conduct assessment, and implement reflection. The study employs competency-based, activity-based, and systemic approaches, along with methods of analysis, observation, questionnaire survey, and pedagogical experimentation. The potential of LMS, e-portfolios, interactive tasks, digital assessment, and microteaching for developing methodological competence is analyzed. As a result, methodological recommendations are proposed for improving course content, practical tasks, assessment, and reflective activities.

Keywords: methodological competence, digital educational technologies, future teacher, digital competence, digital didactics, LMS, e-portfolio, interactive learning, digital assessment, microteaching, reflection, professional training.

Kirish. Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligi mazmuniga yangi talablarni qo'ymoqda. Zamonaviy pedagog raqamli vositalardan texnik jihatdan foydalana olish bilan bir qatorda, ularning qaysi didaktik vazifani hal qilishini, qaysi auditoriyaga mosligini, o'quv natijalariga qanday ta'sir ko'rsatishini va ulardan foydalanish samaradorligini qanday baholashni ham bilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, metodik kompetentlik raqamli muhitda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylanmoqda.

Raqamli ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy pedagogik ta'lim oldiga bo'lajak o'qituvchilarni faqat yangi dastur va platformalar bilan tanishtirish vazifasini emas, balki ularda mazkur vositalarni pedagogik jihatdan asosli tanlash va qo'llash qobiliyatini shakllantirish zaruratini ham qo'ymoqda. Chunki bir xil

raqamli vosita turli pedagogik vaziyatlarda turlicha natija berishi mumkin. Uning samaradorligi, avvalo, ta'lim maqsadi, o‘quvchilar xususiyati, fan mazmuni, o‘qitish metodlari va baholash mezonlari bilan qanchalik uyg‘unlashtirilganiga bog‘liq.

“Raqamli ta'lim texnologiyalari” fani mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun muhim o‘quv maydonlaridan biri hisoblanadi. Fan doirasida talabalar raqamli resurslar yaratish, ta'lim platformalari bilan ishlash, elektron baholashni tashkil etish, multimedia vositalaridan foydalanish, bulutli xizmatlar asosida hamkorlik qilish kabi ko‘nikmalarni egallaydilar. Biroq mazkur faoliyatlar faqat texnik amallarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolsa, fan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik rivojlanishiga yetarli darajada xizmat qilmasligi mumkin.

Shu sababli raqamli vositalarni darsni loyihalash, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish, differensial yondashuvni amalga oshirish, teskari aloqa va baholash tizimini yaratish bilan uzviy bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv raqamli texnologiyani mustaqil maqsad sifatida emas, balki pedagogik maqsadga erishish vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi “Raqamli ta'lim texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq metodik kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash, fan mazmunidagi metodik imkoniyatlarni tizimlashtirish, amaliy topshiriqlar modelini ishlab chiqish va metodik kompetentlikni baholash mezonlarini takomillashtirish vazifalari belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda xalqaro pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlarining ta'lim tizimiga jadal kirib kelishi natijasida bo‘lajak pedagoglardan nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalariga, balki ularni pedagogik maqsadlar asosida tanlash, dars jarayoniga integratsiya qilish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish va ta'lim natijalarini baholashda samarali qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘lish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilmiy manbalarda raqamli kompetentlikni faqat texnik vositalardan foydalanish qobiliyati sifatida emas, balki pedagogik maqsadlarga erishish uchun raqamli texnologiyalarni ongli, maqsadli, tanqidiy va samarali qo‘llash qobiliyati sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchaymoqda.

Yevropa Komissiyasining DigCompEdu doirasi pedagoglarning raqamli kompetentligini 22 ta kompetensiya va oltita asosiy yo‘nalishda tavsiflaydi. Ular kasbiy hamkorlik, raqamli resurslar, o‘qitish va o‘rganish, baholash, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda o‘quvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishni qamrab oladi [1]. Mazkur yondashuvning muhim jihati shundaki, unda asosiy e'tibor texnologik vositaning o‘ziga emas, balki undan ta'lim jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarning faolligini oshirish va pedagogik muammolarni hal etish vositasi

sifatida foydalanishga qaratilgan. Demak, raqamli kompetentlikning mazmuni texnologik bilim, pedagogik bilim va ularni amaliy faoliyatda uyg‘unlashtirish qobiliyatining birligida namoyon bo‘ladi.

OECDning raqamli ta’limga oid tahlillarida ham umumiy raqamli savodxonlik bilan aynan pedagogik faoliyatga xos raqamli kompetentlik o‘rtasidagi farq alohida ko‘rsatiladi [2]. O‘qituvchining raqamli kompetentligi texnologiyani muayyan ta’limiy maqsad uchun tanlash, raqamli muhitda o‘quv faoliyatini tashkil etish, ta’lim oluvchilar bilan samarali raqamli muloqotni yo‘lga qo‘yish, baholashni amalga oshirish va talabalarni belgilangan o‘quv natijalariga olib borish qobiliyatini qamrab oladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishni alohida texnik ko‘nikma sifatida emas, balki kasbiy-metodik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida shakllantirish muhimdir.

Tadqiqotlarda pedagoglarning raqamli kompetentligini rivojlantirishda texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning o‘zaro integratsiyasi muhimligi ham ta’kidlanadi. Xususan, TPACK konsepsiyasi texnologik bilimning o‘zi samarali raqamli ta’limni ta’minlamasligini, texnologik vositalar mazmun va pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchi qaysi texnologiyadan foydalanishni bilishi bilan birga, undan nima maqsadda, qaysi mavzuda, qanday metod asosida va qanday kutilayotgan natijaga erishish uchun foydalanishni ham anglay olishi kerak. Bu holat raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish bilan metodik kompetentlikni rivojlantirish o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini shakllantirishga oid tadqiqotlarda amaliy faoliyatga asoslangan ta’lim yondashuvlari ham samarali vosita sifatida qayd etiladi. Talabalarning raqamli dars ishlanmalari yaratishi, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqishi, elektron baholash vositalaridan foydalanishi, ta’lim platformalarida o‘quv kurslarini loyihalashi va raqamli resurslarni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilishi ularning nafaqat texnologik, balki metodik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bunda amaliy topshiriqlar real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilishi va talabaning mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berishi muhim hisoblanadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalarining metodik kompetentlikni rivojlantirishdagi yana bir muhim imkoniyati individual va differensial ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq. Raqamli platformalar, multimedia vositalari, interaktiv topshiriqlar va adaptiv ta’lim resurslari orqali o‘quvchilarning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va individual ehtiyojlariga mos ta’limiy faoliyatni tashkil etish mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchi bunday vositalardan foydalanish jarayonida o‘quvchilarning imkoniyatlarini tahlil qilish, mos resursni tanlash, topshiriqlarni differensiallashtirish va natijalarni monitoring qilish bo‘yicha metodik tajribaga ega bo‘ladi.

Metodik kompetentlikni shakllantirish masalasi, shuningdek, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar bilan

chambarchas bog‘liq. Ushbu yondashuvlarda talaba tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi shaxs sifatida emas, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qiluvchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi, ta’lim jarayonini loyihalovchi va o‘z faoliyatini baholovchi bo‘lajak mutaxassis sifatida qaraladi. Raqamli ta’lim texnologiyalari esa aynan shunday faoliyatni tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi.

Adabiyotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, raqamli vositani tanlash mezonlari va undan foydalanish maqsadining aniqligiga bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Bir xil texnologik vosita turli pedagogik maqsadlarda turlicha natija berishi mumkin. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchida “qaysi texnologiyadan foydalanish kerak?” degan savol bilan bir qatorda “nima uchun aynan shu texnologiya tanlanmoqda?”, “u qaysi pedagogik muammoni hal qiladi?” va “o‘quv natijasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?” kabi savollarga javob topish ko‘nikmasini shakllantirish muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy-metodik topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, talabaning ma’lum bir mavzu bo‘yicha elektron taqdimot yaratishi bilan cheklanib qolmasdan, ushbu taqdimotning dars maqsadiga muvofiqligini asoslash, interaktiv elementlarni tanlash, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash va yakuniy natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishi uning metodik kompetentligini yanada rivojlantiradi. Xuddi shuningdek, LMS platformasidan foydalanish, raqamli test tuzish yoki videodars yaratish jarayonlari pedagogik loyihalash va refleksiya bosqichlari bilan bog‘langan holda tashkil etilishi lozim.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli kompetentlikni rivojlantirishning samarali modeli uchta asosiy tarkibiy qismning o‘zaro uyg‘unligiga tayanadi: texnologik bilim va ko‘nikmalar, pedagogik-metodik bilimlar hamda amaliy-refleksiv faoliyat. Ushbu komponentlarning birortasi yetarli darajada shakllanmagan holatda raqamli texnologiyalardan pedagogik maqsadlarda samarali foydalanish imkoniyati cheklanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarni o‘rgatish jarayoni ularning kasbiy-metodik faoliyati bilan uzviy bog‘lanishi zarur.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanining bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aynan pedagogik faoliyat bilan integratsiya qilingan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Mavjud tadqiqotlarda raqamli kompetentlikning mazmuni, tuzilishi va baholash mezonlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, mazkur kompetentlikni aynan “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fani doirasida metodik kompetentlik bilan uyg‘un holda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va amaliy mexanizmlarini tizimli tadqiq etish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mazkur ilmiy bo‘shliq tadqiqotning dolzarbligini belgilab, bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli va metodik kompetentligini integratsiyalashgan holda

rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va tizimli yondashuvlarga asoslanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini real pedagogik va metodik vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv doirasida talabaning raqamli vositalar haqidagi bilimlari ularni tanlash, moslashtirish va aniq ta’limiy maqsadlar uchun qo‘llash ko‘nikmalari bilan birgalikda qaraladi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda talaba tayyor axborotni o‘zlashtiruvchi emas, balki darsni loyihalovchi, raqamli mahsulot yaratuvchi, uni sinovdan o‘tkazuvchi va olingan natijalarni tahlil qiluvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda amaliy topshiriqlar, loyiha ishlari, mikroo‘qitish va elektron portfolio kabi faoliyat turlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Tizimli yondashuv esa ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, o‘quv faoliyati, baholash va refleksiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida “maqsad – metodik vazifa – raqamli vosita – o‘quv faoliyati – baholash – refleksiya” modeli tadqiqotning metodik asoslaridan biri sifatida qabul qilindi.

Metodik kompetentlikni baholashda motivatsion-qiymatli, kognitiv, amaliy-faoliyatli va refleksiv komponentlarni ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Motivatsion-qiymatli komponent raqamli yangiliklarga ochiqlik va kasbiy mas’uliyatni, kognitiv komponent metodlar hamda raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari haqidagi bilimlarni, amaliy-faoliyatli komponent dars va raqamli resurslarni loyihalash qobiliyatini, refleksiv komponent esa o‘z metodik qarorlarini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmalarini ifodalaydi.

Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, amaliy topshiriqlarni ekspert baholash, kirish va yakuniy diagnostika hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanish nazarda tutiladi. Olingan natijalarni qayta ishlashda o‘rtacha ball, foiz ko‘rsatkichlari va o‘sish dinamikasidan foydalanish mumkin.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanining bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Bunda asosiy masala raqamli vositalarning soni yoki ularning texnik imkoniyatlarida emas, balki ularni muayyan metodik vazifalar bilan bog‘lashda namoyon bo‘ladi.

Birinchi muhim imkoniyat bo‘lajak o‘qituvchida raqamli vositalarni didaktik asosda tanlash ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq. Talaba turli dastur va platformalarni faqat funksional imkoniyatlari bo‘yicha emas, balki ta’lim maqsadi, o‘quvchilarning yoshi, fan mazmuni, mavjud texnik infratuzilma va kutilayotgan natijalar asosida taqqoslashi lozim. Bunday faoliyat texnologik tanlovni ongli metodik qarorga aylantiradi.

Ikkinchi imkoniyat raqamli o‘quv kontentini yaratish orqali metodik loyihalashni rivojlantirish bilan bog‘liq. Taqdimot, video, infografika, elektron qo‘llanma yoki interaktiv topshiriq yaratishda talaba axborotning mazmuni va hajmi, uning mantiqiy ketma-ketligi, vizual yuklama, o‘quvchini faollashtirish imkoniyati hamda teskari aloqa shaklini hisobga oladi. Shu tariqa raqamli mahsulot yaratish jarayoni pedagogik mazmunni qayta ishlash va uni aniq auditoriyaga moslashtirish vositasiga aylanadi.

Uchinchi imkoniyat LMS va bulutli muhit yordamida ta’lim jarayonini metodik boshqarish bilan belgilanadi. Talaba LMS platformasida mavzular ketma-ketligini, topshiriqlar muddatini, baholash mezonlarini, forum va teskari aloqa shakllarini ishlab chiqish orqali raqamli ta’lim muhitini boshqarish tajribasini egallaydi. Natijada u raqamli sinfni faqat texnik makon sifatida emas, balki oldindan loyihalashtirilgan pedagogik tizim sifatida tushunishga o‘rganadi.

To‘rtinchi muhim yo‘nalish raqamli baholash va formatif baholashni rivojlantirish imkoniyatidir. Raqamli testlar, tezkor so‘rovlar, rubrikalar va elektron portfolio o‘qituvchiga o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchi faqat savol yoki test yaratishni emas, balki topshiriqning ta’lim maqsadiga mosligi, teskari aloqaning mazmuni va baholash natijasiga asoslangan keyingi pedagogik harakatlarni ham loyihalashi kerak.

Beshinchi imkoniyat mikroo‘qitish va refleksiv faoliyat bilan bog‘liq. Talaba raqamli vositadan foydalangan holda qisqa dars fragmentini tashkil etadi. Ushbu jarayon kuzatuv, videoyozuv yoki belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinadi. Keyingi bosqichda talaba o‘z metodik qarorlarini baholaydi, tengdoshlarining fikrlarini oladi va dars loyihasini takomillashtiradi. Bu metodik kompetentlikning refleksiv komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oltinchi imkoniyat raqamli hamkorlik va kasbiy muloqotni tashkil etish orqali namoyon bo‘ladi. Umumiy hujjatlar, loyiha doskalari, forumlar va elektron portfolio vositasida talabalar bir-birlarining metodik ishlanmalarini ko‘rib chiqishi, o‘zaro tavsiyalar berishi va birgalikda ta’limiy mahsulot yaratishi mumkin. Bunday hamkorlik kelajakdagi pedagogik faoliyatda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yettinchi imkoniyat differensial va individual ta’limni loyihalash bilan bog‘liq. Bir mavzu doirasida turli murakkablikdagi topshiriqlar, qo‘shimcha raqamli resurslar va mustaqil o‘rganish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘lajak o‘qituvchiga o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Bu yerda raqamli texnologiya o‘qituvchining metodik qarorini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun alohida-alohida topshiriqlardan ko‘ra ularni yagona metodik sikl asosida tashkil etish samaraliroqdir. Ushbu sikl ta’lim maqsadini belgilash, metodik vazifani

aniqlash, mos raqamli vositani tanlash, o‘quv faoliyatini loyihalash, natijalarni baholash va refleksiya qilish bosqichlarini qamrab oladi.

Metodik tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni dastur va platformalar funksiyalarini takrorlashdan ko‘ra metodik muammolarni hal etishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Har bir topshiriqda “Qaysi vosita?”, “Nima uchun?”, “Qaysi o‘quv natijasi uchun?” va “Natija qanday baholanadi?” kabi savollarning mavjud bo‘lishi talab etiladi.

Ikkinchidan, fan doirasida raqamli metodik portfolio yuritishni joriy etish tavsiya etiladi. Portfolio tarkibiga dars loyihasi, raqamli resurs, interaktiv topshiriq, baholash rubrikasi, mikroo‘qitish natijalari va refleksiv hisobotlarni kiritish mumkin.

Uchinchidan, talabalarni faqat tayyor raqamli vositalardan foydalanishga emas, balki ularni didaktik mezonlar asosida taqqoslashga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quv maqsadi, auditoriya xususiyatlari, foydalanish qulayligi, maxfiylik, mualliflik huquqi, texnik imkoniyatlar va inklyuzivlik kabi mezonlar hisobga olinishi kerak.

To‘rtinchidan, har bir modulda formatif baholash va o‘zaro baholash elementlarini qo‘llash tavsiya etiladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchining baholashni faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quv jarayonini boshqaruvchi metodik mexanizm sifatida tushunishiga yordam beradi.

Beshinchidan, mikroo‘qitishni fan dasturining muntazam elementi sifatida tashkil etish lozim. Talabaning raqamli vosita yordamida qisqa dars o‘tkazishi, uni mezon asosida tahlil qilishi va qayta loyihalashi metodik refleksiyani sezilarli darajada rivojlantiradi.

Oltinchidan, oliy ta’lim muassasalarida raqamli metodik laboratoriyalar yoki amaliy seminarlarni tashkil etish foydali. Bunday muhitda talabalar real dars muammolari uchun raqamli yechim ishlab chiqib, uni kichik guruhlarda sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yettinchidan, fan bo‘yicha yakuniy baholashda faqat nazariy bilimlarni tekshirish bilan cheklanmasdan, talabaning metodik mahsuloti va uni himoya qilish natijalarini ham hisobga olish lozim. Talaba yaratgan mahsulotining pedagogik maqsadini, raqamli vositani tanlash sabablarini, baholash usullarini va kutilayotgan natijalarni asoslab bera olishi zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanini bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan integrativ fan sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Uning samaradorligi raqamli vositalarning soni yoki texnik imkoniyatlariga emas, balki ularni aniq pedagogik va metodik vazifalar bilan bog‘lash darajasiga bog‘liq.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida raqamli resurs yaratish, LMSda modul loyihalash, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish,

elektron portfolio yuritish, mikroo‘qitish, formatif va o‘zaro baholash hamda refleksiv tahlilni yagona metodik siklga birlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Bunday yondashuv natijasida talaba raqamli texnologiyalarning oddiy foydalanuvchisidan ularni pedagogik maqsadlarga muvofiq tanlay oladigan, metodik jihatdan asoslay oladigan va ta’lim jarayonida samarali qo‘llay oladigan bo‘lajak mutaxassis darajasiga ko‘tariladi.

Shunday qilib, “Raqamli ta’lim texnologiyalari” fanining mazmunida texnik ko‘nikmalar bilan bir qatorda darsni loyihalash, o‘quv faoliyatini boshqarish, raqamli baholash, hamkorlik va refleksiv amaliyotga ustuvor o‘rin berish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda taklif etilgan metodik modelni real tajriba-sinov guruhlarida sinab ko‘rish, turli pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida olingan natijalarni qiyoslash hamda metodik kompetentlikdagi o‘zgarishlarni uzoq muddatli pedagogik amaliyot davomida kuzatish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mayer R.E. Multimedia Learning. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
2. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. – Paris: UNESCO, 2023.
3. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (Ed.). – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
4. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054.
5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent, 2007. – 305 b.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 208 b.
7. Karimova N. Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 144 b.
8. Abdusamatova G.Z. Masharipov M.P "Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar integratsiyasi // “Ekonomika i sotsium” elektron nauchno-prakticheskoe periodicheskoe izdanie. – 2024. – № 12 (127)-2..

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 378.147:159.955

Ernazarova Nazira Xaqberdiyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchi

Xummamatova Kamola Xayrullayevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

BLOOM TAKSONOMIYASI VA Q-MATRITSA ASOSIDA TALABALARNING KOGNITIV PROFILINI ANIQLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Bloom taksonomiyasi va Q-matritsa asosida talabalarning kognitiv profilini aniqlashning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy baholash tizimlarining talabalarning kognitiv faoliyatidagi individual farqlarni aniqlashdagi cheklovlari ko‘rib chiqilib, kognitiv diagnostika yondashuvining afzalliklari yoritilgan. Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalari Q-matritsa orqali test topshiriqlari bilan bog‘lanib, talabaning bilimni eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlaridagi o‘zlashtirish holatini aniqlash imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, kognitiv profil asosida differensial va shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish, individual topshiriqlarni tanlash hamda talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan. Q-matritsani ishlab chiqish va validatsiya qilish bilan bog‘liq metodik masalalar ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bloom taksonomiyasi, Q-matritsa, kognitiv diagnostika, kognitiv profil, talaba, kognitiv darajalar, differensial ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, psixometriya.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КОГНИТИВНОГО ПРОФИЛЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТАКСОНОМИИ БЛУМА И Q-МАТРИЦЫ

Аннотация. В статье анализируются дидактические возможности определения когнитивного профиля студентов на основе таксономии Блума и Q-матрицы. Рассматриваются ограничения традиционных систем оценивания в выявлении индивидуальных различий в когнитивной деятельности студентов и раскрываются преимущества когнитивно-диагностического подхода. Когнитивные уровни таксономии Блума посредством Q-матрицы соотносятся с конкретными тестовыми заданиями, что позволяет определить уровень освоения студентами процессов запоминания, понимания, применения, анализа, оценивания и создания. Обосновываются возможности

организации дифференцированного и персонализированного обучения на основе когнитивного профиля, подбора индивидуальных заданий и мониторинга динамики развития студентов. Также рассматриваются методические вопросы разработки и валидации Q-матрицы.

Ключевые слова: таксономия Блума, Q-матрица, когнитивная диагностика, когнитивный профиль, студенты, когнитивные уровни, дифференцированное обучение, персонализированное обучение, психометрия.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF IDENTIFYING STUDENTS' COGNITIVE PROFILES BASED ON BLOOM'S TAXONOMY AND THE Q-MATRIX

Abstract. This article analyzes the didactic possibilities of identifying students' cognitive profiles based on Bloom's Taxonomy and the Q-matrix. The study examines the limitations of traditional assessment systems in identifying individual differences in students' cognitive performance and highlights the advantages of the cognitive diagnostic approach. The cognitive levels of Bloom's Taxonomy are linked to specific test items through the Q-matrix, making it possible to determine students' levels of achievement in remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, and creating. The study also demonstrates the potential of using cognitive profiles to organize differentiated and personalized learning, select individual tasks, and monitor students' cognitive development over time. In addition, methodological issues related to the development and validation of the Q-matrix are considered.

Keywords: Bloom's Taxonomy, Q-matrix, cognitive diagnosis, cognitive profile, students, cognitive levels, differentiated learning, personalized learning, psychometrics.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim paradigmasida talabalarning nafaqat o'zlashtirish natijalarini, balki ularning bilish faoliyatining ichki tuzilishini aniqlash, kognitiv kuchli va zaif tomonlarini diagnostika qilish ham muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy baholash tizimlarida talabaning bilim darajasi ko'pincha yagona ball yoki foiz ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Bunday yondashuv umumiy natijani ko'rsatish imkonini bersa-da, talabaning aynan qaysi kognitiv bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash imkoniyatini cheklaydi.

Mazkur muammoni bartaraf etishda zamonaviy psixometriya va kognitiv diagnostik baholash (CDA) modellari muhim metodologik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu modellar test topshiriqlari bilan muayyan kognitiv atributlar o'rtasidagi bog'liqlikni Q-matritsa yordamida ifodalash orqali ta'lim oluvchining ko'p o'lchovli kognitiv profilini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, talabalarning individual qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish vazifalari bilan bevosita bog‘liq [1].

Shu nuqtayi nazardan, Bloom taksonomiyasini Q-matritsa asosidagi kognitiv diagnostika bilan uyg‘unlashtirish talabalarning bilimini shunchaki baholashdan ko‘ra, ular qanday fikrlayotgani va qaysi kognitiv bosqichda rivojlanishga ehtiyoj sezayotganini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi Bloom taksonomiyasi va Q-matritsa asosida talabalarning kognitiv profilini aniqlashning didaktik imkoniyatlarini nazariy va metodik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalarini pedagogik diagnostika nuqtayi nazaridan tahlil qilish;
2. Q-matritsaning kognitiv diagnostikadagi o‘rnini aniqlash;
3. test topshiriqlarini kognitiv atributlar bilan bog‘lash mexanizmini yoritish;
4. talabaning individual kognitiv profilini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;
5. kognitiv profil asosida differensial va shaxsiylashtirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti oliy ta’limda talabalarning kognitiv faoliyatini baholash jarayoni, predmeti esa Bloom taksonomiyasi va Q-matritsa asosida kognitiv profilni diagnostika qilishning didaktik imkoniyatlaridir.

Adabiyotlar sharhi. Bloom taksonomiyasi o‘quv maqsadlarini tizimlashtirish va kognitiv faoliyat darajalarini tabaqalashtirishga xizmat qiluvchi klassik pedagogik modellardan biridir. Mazkur taksonomiya Benjamin Bloom va uning hamkorlari tomonidan 1956-yilda ishlab chiqilgan. 2001-yilda Anderson va Krathwohl tomonidan taksonomiyaning qayta ko‘rib chiqilgan varianti taklif etilib, kognitiv jarayonlar fe’l shaklida ifodalandi hamda “Yaratish” yuqori darajaga ko‘tarildi [2].

Bloom taksonomiyasi an’anaviy ravishda quyidagi oltita kognitiv bosqichni qamrab oladi: esga olish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish.

1-jadval

Klassik Bloom taksonomiyasining kognitiv darajalari tavsifi va amaliy ko‘rsatkichlari

Daraja	Kognitiv bosqich	Bosqichning mohiyati	O‘quvchidan kutiladigan amaliy harakatlar

1-daraja	Bilish	Faktlar, atamalar, asosiy tushunchalar, usullar va tartib-qoidalarni xotirada tiklash yoki tanib olish.	Nomlash, sanab o‘tish, ta’riflash, eslash, ro‘yxat tuzish.
2-daraja	Tushunish	O‘quv materialining mazmunini anglash, uni sharhlash, qayta ifodalash va bashorat qilish.	Izohlash, qayta so‘zlab berish, tasvirlash, umumlashtirish, misol keltirish.
3-daraja	Qo’llash	Qoidalar, tushunchalar, formulalar va nazariyalarni yangi yoki standart amaliy vaziyatlarda ishlatish.	Qo‘llash, hisoblash, yechish, namoyish qilish, foydalanish.
4-daraja	Tahlil qilish	Axborotni tarkibiy elementlarga ajratish, ular orasidagi bog‘liqlik va tashkiliy tamoyillarni aniqlash.	Qismlarga ajratish, taqqoslash, farqlash, tekshirish, sabab-oqibatni topish.
5-daraja	Sintez	Qismlar va elementlarni birlashtirib, yangi yaxlit struktura, g‘oya, reja yoki model yaratish.	Rejalashtirish, loyihalash, yaratish, umumlashtirish, ishlab chiqish.
6-daraja	Baholash	Aniq standartlar, ichki dalillar yoki tashqi mezonlar asosida xulosa chiqarish va qiymatini baholash.	Xulosa berish, solishtirish, tanqid qilish, himoya qilish, tekshirish.

Bloom taksonomiyasi o‘qituvchi uchun dars maqsadlarini belgilash, topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish va baholash vositalarini ishlab chiqishda metodik yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.

Biroq zamonaviy tadqiqotlar an’anaviy testlarning muayyan cheklovlarini ham ko‘rsatmoqda. Xususan, Ravand va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda test topshiriqlarining katta qismi quyi va o‘rta kognitiv darajalarga tegishli ekani, yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni o‘lchovchi topshiriqlar ulushi esa nisbatan kamligi aniqlangan [5].

De la Torre va Chiu tadqiqotlari esa topshiriq bir vaqtning o‘zida bir nechta kognitiv atributni talab qilganda, ularni diagnostika qilish murakkablashishini ko‘rsatadi [3]. Lin va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ayrim test topshiriqlarining tashqi ko‘rinishidan yuqori kognitiv darajaga mansub bo‘lib ko‘rinsa-da, amalda quyi darajadagi bilimni talab qilishi mumkinligi qayd etilgan [4].

Mazkur holatlar Bloom taksonomiyasini oddiy topshiriq tasniflagichi sifatida emas, balki kognitiv diagnostika modeli bilan integratsiyalashgan holda qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Q-matritsa va kognitiv diagnostika

Kognitiv diagnostika modellarining asosiy komponentlaridan biri Q-matritsa hisoblanadi. U test topshiriqlari va kognitiv atributlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Q-matritsada odatda 0 va 1 qiymatlaridan foydalaniladi: agar ma’lum bir topshiriqni bajarish uchun muayyan kognitiv atribut zarur bo‘lsa, tegishli katakka **1**, zarur bo‘lmasa **0** qiymati beriladi.

Shunday qilib, Q-matritsa quyidagi mantiq asosida tuziladi:

Test topshirig‘i → kognitiv atribut → Bloom darajasi → diagnostik natija.

Q-matritsaning to‘g‘ri ishlab chiqilishi kognitiv diagnostika natijalarining ishonchliligi uchun muhim shartdir. Noto‘g‘ri tuzilgan Q-matritsa talabaning kognitiv profilini noto‘g‘ri aks ettirishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini talabalarning kognitiv faoliyatini aniqlash va baholashga qaratilgan zamonaviy pedagogik hamda psixometrik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kognitiv atributlarni aniqlash, ekspert baholash, Q-matritsani ishlab chiqish va validatsiya qilish, shuningdek, kognitiv diagnostika modellarining imkoniyatlarini o‘rganish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar Bloom taksonomiyasi darajalari bilan test topshiriqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda talabaning individual kognitiv profilini shakllantirish imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi.

Tadqiqotda kognitiv diagnostikaning asosiy vositasi sifatida Q-matritsa tanlandi. Q-matritsa test topshiriqlari va ularni bajarish uchun zarur bo‘lgan kognitiv atributlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi maxsus matritsa bo‘lib, odatda 0 va 1 qiymatlari yordamida kodlanadi. Bunda 1 qiymati tegishli kognitiv atribut topshiriqni bajarish uchun zarurligini, 0 qiymati esa mazkur atribut ushbu topshiriqda talab etilmasligini bildiradi. Q-matritsaning to‘g‘ri shakllantirilishi kognitiv diagnostika natijalarining aniqligi va mazmuniy ishonchliligini ta’minlovchi muhim shartlardan biridir.

Q-matritsani ishlab chiqish jarayoni izchil ravishda uch asosiy bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda — nazariy asosni tanlashda test topshiriqlarida baholanishi lozim bo‘lgan kognitiv jarayonlar aniqlanadi. Ushbu tadqiqotda Bloom taksonomiyasining qayta ko‘rib chiqilgan varianti asosiy nazariy model sifatida qabul qilinib, undagi eslab qolish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish darajalari kognitiv atributlarni belgilash uchun asos qilib olindi. Har bir daraja tegishli faoliyat fe’llari va topshiriq mazmuni bilan bog‘landi.

Ikkinchi bosqich — Q-matritsani ishlab chiqish bosqichida har bir test topshirig‘ini to‘g‘ri bajarish uchun zarur bo‘lgan kognitiv atributlar aniqlanadi. Bunda topshiriqning mazmuni, murakkablik darajasi va uni bajarish ketma-ketligi tahlil qilinadi. Test topshirig‘ini yechish jarayonida talab qilinadigan asosiy aqliy

O‘quvchi matnni o‘qish jarayonida faqat undagi tayyor ma’lumotni topish bilan cheklanmasligi kerak. U matn mazmunini anglash, muallifning asosiy fikrini aniqlash, turli ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash, sabab va oqibatlarni aniqlash, matn asosida xulosa chiqarish va o‘z nuqtayi nazarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

PIRLS dasturining mazmuni ana shu kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Xalqaro baholash topshiriqlarida adabiy va axborot matnlaridan foydalanish, shuningdek, grafik va jadval ko‘rinishidagi ma’lumotlarni tahlil qilish o‘quvchining turli axborot manbalari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda ochiq turdagi topshiriqlarning o‘rni ayniqsa muhim. Masalan, o‘quvchiga matndagi qahramon o‘rnida o‘zini tasavvur qilish, muayyan vaziyatda qanday yo‘l tutishini izohlash, voqealar rivojini davom ettirish,

matnga yangi sarlavha tanlash yoki matnning boshqa yakunini taklif qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Bunday vazifalar o‘quvchidan mavjud bilimlarni qayta takrorlashni emas, balki o‘z tajribasi, tasavvuri va mantiqiy fikrlash imkoniyatlaridan foydalanishni talab qiladi. Natijada o‘quvchining ijodiy yondashuvi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmasi rivojlanadi.

Xalqaro baholash topshiriqlarini kognitiv murakkabligiga ko‘ra quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

Birinchi daraja — eslab qolish va qayta tiklash. O‘quvchi matnda berilgan aniq ma’lumotni topadi va qayta ifodalaydi.

Ikkinchi daraja — tushunish va qo‘llash. O‘quvchi matndagi g‘oya va ma’lumotlarni o‘zaro bog‘laydi hamda ularni berilgan vaziyatda qo‘llaydi.

Uchinchi daraja — strategik fikrlash. O‘quvchi ma’lumotlarni taqqoslaydi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi va dalillar asosida xulosa chiqaradi.

To‘rtinchi daraja — kengaytirilgan fikrlash. O‘quvchi mavjud ma’lumotlar asosida mustaqil fikr yuritadi, yangi g‘oya ilgari suradi, muqobil yechimlarni taklif qiladi va o‘z qarashlarini asoslaydi.

Bunday tizim o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini oddiydan murakkabga qarab rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot materiallarida ham xalqaro baholash topshiriqlarining mazmuni o‘quvchini yuzaki o‘qishdan ko‘ra mushohada qilish, voqealarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va mustaqil xulosa chiqarishga undashi qayd etilgan.

Boshlang‘ich ta’limda bunday topshiriqlarni ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari bilan bir qatorda tabiiy fanlar va boshqa o‘quv fanlariga ham integratsiya qilish mumkin. Masalan, tabiiy fanlarda berilgan axborot matni asosida o‘quvchi jadval yoki grafikni tahlil qilishi, ma’lumotlarni taqqoslashi va muayyan hodisa yuzasidan xulosa chiqarishi mumkin. Bu jarayonda o‘qish savodxonligi boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Xalqaro baholash dasturlarining yana bir muhim jihati — ta’lim jarayonidagi mavjud muammolarni aniqlash imkoniyatidir. Baholash natijalari orqali o‘quvchilarning qaysi kompetensiyalari yaxshi shakllangani, qaysi yo‘nalishlarda esa qo‘shimcha pedagogik yordam zarurligini aniqlash mumkin. Shu asosda o‘quv dasturlari, metodik materiallar va dars jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tegishli choralar belgilanadi.

Bunda o‘qituvchining roli ham muhimdir. O‘qituvchi xalqaro baholash topshiriqlaridan faqat nazorat vositasi sifatida emas, balki o‘quvchini rivojlantiruvchi metodik vosita sifatida foydalanishi lozim. Dars jarayonida o‘quvchilarga «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Boshqa qanday yechim bo‘lishi mumkin?», «Agar vaziyat o‘zgarsa, nima sodir bo‘ladi?» kabi savollarni berish ularni yuqori darajadagi fikrlashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, xalqaro baholash dasturlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayib borishi ta’lim jarayoniga ham yangi imkoniyatlar olib

kirmoqda. Elektron topshiriqlar, onlayn so‘rovnomalar va raqamli baholash vositalari orqali o‘quvchilarning natijalarini tezkor yig‘ish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot materiallarida PIRLS tadqiqotlari doirasida elektron shakldagi topshiriqlar va so‘rovnomalardan foydalanish imkoniyatlari ham qayd etilgan.

Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlaridan foydalanishda milliy ta’lim xususiyatlarini hisobga olish muhim. Xorijiy tajribani aynan takrorlash o‘rniga uning samarali jihatlarini milliy o‘quv dasturlari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va mahalliy pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlari zamonaviy ta’lim sifatini aniqlash, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro mezonlar asosida baholash bilan bir qatorda, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ham muhim imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda PIRLS dasturi mazmuni va talablariga mos topshiriqlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning o‘qish va o‘qib tushunish savodxonligini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish hamda o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday topshiriqlar o‘quvchini tayyor ma’lumotni o‘zlashtirishdan ko‘ra, o‘qiganlarini anglash, ular ustida fikr yuritish va turli vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida PIRLS talablariga mos topshiriqlardan muntazam foydalanish, o‘quvchilarning o‘qib tushunish kompetensiyalarini izchil rivojlantirish hamda oddiy, reproduktiv topshiriqlar bilan bir qatorda tahliliy, muammoli va ijodiy vazifalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘quvchilarni matn bilan bir qatorda grafik, jadval va boshqa axborot manbalari asosida ishlashga o‘rgatish, o‘z fikrini mustaqil shakllantirish va uni dalillar bilan asoslashga yo‘naltirish zarur. Xalqaro baholash natijalarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda uchrayotgan qiyinchiliklarni aniqlash, shunga mos ravishda o‘qitish usullarini takomillashtirish va pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati ham kengayadi. Bunda xalqaro tajribadan foydalanish milliy ta’lim mazmuni va mavjud pedagogik tajriba bilan uyg‘un holda olib borilishi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

Umuman olganda, xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishning ahamiyati faqat o‘quvchilarning baholash natijalarini yaxshilash bilangina cheklanmaydi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, axborotni tahlil qila oladigan, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim topishga intiladigan, yangicha fikr bildira oladigan va o‘z qarashlarini asoslay oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan xalqaro baholash dasturlaridan oqilona foydalanish boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning zarur kompetensiyalarini rivojlantirish va milliy ta’lim tizimini

zamonaviy xalqaro ta'lim tendensiyalari bilan uyg'unlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. — 2018. — [Elektron manba]. https://lex.uz/docs/4097073
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. — 2022.
4. Boltaeva, Sh. T. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish // Pedagogika nazariyasi va tarixining ayrim dolzarb muammolari: ilmiy ishlar to'plami. — Toshkent: Fan, 2006. — B. 142–144.
5. Hamroyev, A. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalash: pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. — Toshkent, 2020.
6. Urakov, Sh. R., Fayzullayeva, G. Sh. Ta'limda innovatsion yondashuvlar (malaka oshirish kurslari misolida): uslubiy qo'llanma. — Samarqand: SamDU nashriyoti.
7. Turdibayev, D. X. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi: pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Nukus, 2024.
8. Abdullayeva, Sh. A., Ergasheva, M. T. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik: o'quv qo'llanma. — Toshkent, 2023.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 101:316.77:327.5

Yakubov Bahodirjon Muhammadjonovich,
Andijon shahar harbiy qism
Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitseri

PROKSI URUSHI SHAROITIDA MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy geosiyosiy jarayonlarda davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar nafaqat bevosita harbiy to'qnashuvlar, balki axborot, mafkura, qadriyatlar va ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish vositalari orqali ham namoyon bo'lmoqda. Bu esa jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta'minlash va tashqi hamda ichki tahdidlarga nisbatan barqarorlikni shakllantirish masalasini dolzarb etmoqda. Tadqiqotda proksi urushlarning mohiyati, ularning jamiyat mafkuraviy barqarorligiga ta'sir mexanizmlari hamda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning falsafiy, ijtimoiy va axloqiy tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot makonida manipulyatsiya, dezinformatsiya, qadriyatlar transformatsiyasi va ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish jarayonlarining falsafiy jihatlari tahlil qilinib, mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashda tanqidiy fikrlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va axborot madaniyatining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: proksi urushlar, mafkuraviy xavfsizlik, falsafiy asoslar, axborot xavfsizligi, mafkuraviy tahdidlar, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, ijtimoiy ong, dezinformatsiya, axborot makoni, tanqidiy fikrlash, ma'naviy barqarorlik.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ПРОКСИ-ВОЙНЫ

Аннотация. В статье анализируются философские основы обеспечения идеологической безопасности в условиях прокси-войн. В современных геополитических процессах противостояние между государствами проявляется не только в форме непосредственных военных столкновений, но и посредством воздействия на информационное пространство, идеологию, ценности и общественное сознание. Это повышает актуальность обеспечения идеологической устойчивости общества и формирования его устойчивости к внешним и внутренним угрозам. В исследовании раскрываются сущность прокси-войн, механизмы их воздействия на идеологическую устойчивость общества, а также философские, социальные и этические принципы обеспечения идеологической безопасности. Кроме того, анализируются философские аспекты манипуляции, дезинформации, трансформации

ценностей и воздействия на общественное сознание в современном информационном пространстве. Обосновывается значение критического мышления, духовно-нравственных ценностей и информационной культуры в укреплении идеологической устойчивости общества.

Ключевые слова: прокси-войны, идеологическая безопасность, философские основы, информационная безопасность, идеологические угрозы, геополитическое противостояние, общественное сознание, дезинформация, информационное пространство, критическое мышление, духовная устойчивость.

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF ENSURING IDEOLOGICAL SECURITY IN THE CONTEXT OF PROXY WAR

Abstract. This article analyzes the philosophical foundations of ensuring ideological security in the context of proxy wars. In contemporary geopolitical processes, confrontation between states manifests itself not only through direct military clashes but also through means of influencing the information environment, ideology, values, and public consciousness. This increases the relevance of ensuring the ideological stability of society and developing resilience to external and internal threats. The study examines the nature of proxy wars, the mechanisms through which they affect the ideological stability of society, as well as the philosophical, social, and ethical principles of ensuring ideological security. It also analyzes the philosophical aspects of manipulation, disinformation, value transformation, and influence on public consciousness in the contemporary information environment. The article substantiates the importance of critical thinking, spiritual and moral values, and information culture in strengthening the ideological stability of society.

Keywords: proxy wars, ideological security, philosophical foundations, information security, ideological threats, geopolitical confrontation, public consciousness, disinformation, information environment, critical thinking, spiritual resilience.

Kirish. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan geosiyosiy transformatsiyalar xavfsizlik tushunchasining mazmuni va ko‘lamini sezilarli darajada kengaytirmoqda. An’anaviy xavfsizlik modeli, avvalo, davlat hududi, harbiy salohiyat va siyosiy suverenitetni himoya qilish masalalariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, globallashuv va raqamlashtirish sharoitida xavfsizlikning axborot, mafkuraviy, ma’naviy-axloqiy va psixologik jihatlari ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar faqat bevosita harbiy to‘qnashuvlar orqali emas, balki vositachi kuchlar, nodavlat subyektlar, axborot platformalari, raqamli kommunikatsiyalar va mafkuraviy ta’sir mexanizmlari orqali ham amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, proksi urushlar sharoitida qarama-qarshi

tomonlarning bevosita harbiy to‘qnashuvdan tashqari vositachi kuchlar va axborot-mafkuraviy instrumentlardan foydalanishi jamiyatning ijtimoiy ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mazkur sharoitda mafkuraviy xavfsizlik jamiyat barqarorligi va milliy manfaatlarni himoya qilishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Dezinformatsiya, manipulyatsiya, soxta axborot, qadriyatlar transformatsiyasi va ijtimoiy qutblanish kabi jarayonlar insonning voqelikni anglashiga, ijtimoiy munosabatlariga hamda qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli mafkuraviy xavfsizlikni faqat axborot tahdidlaridan himoyalanish doirasida emas, balki shaxsning tanqidiy fikrlashi, axborot savodxonligi, qadriyatlarga ongli munosabati va ijtimoiy mas’uliyati bilan bog‘liq kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida o‘rganish zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning falsafiy asoslarini aniqlash va unga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida proksi urushlarning mafkuraviy jihatlari, axborot ta’sirining ijtimoiy ongga ta’sir mexanizmlari hamda mafkuraviy xavfsizlikning falsafiy mazmuni izchil o‘rganildi. Shuningdek, tanqidiy tafakkur va qadriyatlarning mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinib, proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikning asosiy komponentlari tizimlashtirildi. Shu asosda mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-konseptual va qiyosiy-tahliliy yondashuvlar asosida olib borildi. Proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlik kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida qaralib, uni chuqurroq tahlil qilishda dialektik, tizimli, aksiologik va epistemologik yondashuvlarga tayanildi. Xususan, dialektik yondashuv proksi urushlar, mafkuraviy tahdid va ijtimoiy ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, shuningdek, mazkur hodisalarning o‘zgaruvchan va dinamik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv orqali mafkuraviy xavfsizlik shaxs, jamiyat, davlat va axborot muhiti o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqildi. Aksiologik yondashuv asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat mafkuraviy barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilindi. Epistemologik yondashuv esa axborot va bilimning shakllanishi, haqiqatni anglash hamda manipulyativ ta’sirlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil hamda kontent-tahlil kabi metodlardan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning ochiq statistik ma’lumotlari hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha mavjud tahliliy materiallar o‘rganilib, ular o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi va umumlashtirildi. Mazkur manbalar asosida proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar, uning tarkibiy komponentlari hamda xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini “tahdid — ong — qadriyat — qaror — barqarorlik” konseptual zanjiri tashkil etadi. Ushbu yondashuv mafkuraviy tahdidlarning, avvalo, axborot kanallari orqali inson ongiga kirib borishi, uning voqelikni idrok etishi va baholashiga ta’sir ko‘rsatishi, keyinchalik qadriyatlar hamda qarorlar tizimida namoyon bo‘lishi va muayyan sharoitlarda ijtimoiy barqarorlikka ta’sir etishi mumkinligini izohlashga imkon beradi. Shu jihatdan mazkur konseptual model tadqiqotda mafkuraviy xavfsizlikka ta’sir etuvchi omillarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish uchun metodologik asos vazifasini bajardi.

Tadqiqot natijalari

1. Proksi urushlar va zamonaviy xavfsizlik muhitining o‘zgarishi

Tadqiqot natijalari proksi urushlar sharoitida xavfsizlik tushunchasi an’anaviy harbiy-siyosiy chegaralardan chiqib, axborot, mafkura, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimini ham qamrab oluvchi kompleks hodisaga aylanganini ko‘rsatdi.

Zamonaviy geosiyosiy qarama-qarshiliklarning ko‘lami va murakkabligi qurolli mojarolar dinamikasida ham namoyon bo‘lmoqda. Uppsala Conflict Data Program (UCDP) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda dunyoda kamida bir davlat ishtirok etgan 61 ta faol qurolli mojaro qayd etilgan. Bu 2023-yildagi 59 ta mojaroga nisbatan 2 taga yoki taxminan 3,4 foizga ko‘p bo‘lib, 1946-yildan buyon qayd etilgan eng yuqori ko‘rsatkichdir. 2024-yilda mojarolarning 11 tasi urush darajasiga yetgan, uyushgan zo‘ravonlik natijasida esa qariyb 160 ming kishi halok bo‘lgan.

1-jadval

Dunyodagi davlat ishtirokidagi faol qurolli mojarolar dinamikasi

Ko‘rsatkich	**2023-yil**	**2024-yil**	**O‘zgarish**
Faol qurolli mojarolar soni	59	61	+2
O‘sish sur’ati	—	—	+3,4 %
Urush darajasiga yetgan mojarolar	—	11	—
Uyushgan zo‘ravonlikdan halok bo‘lganlar	—	≈160 000	—

Manba: Uppsala Conflict Data Program (UCDP), 2024-yil ma’lumotlari.

Mazkur ko‘rsatkichlar xavfsizlikni faqat harbiy kuch orqali ta’minlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mojarolar davomida davlatlar va siyosiy subyektlarning axborot va mafkuraviy ta’sir vositalaridan foydalanishi ijtimoiy ongni strategik ta’sir obyekti sifatida shakllantirmoqda.

Shu sababli proksi urushlarni o‘rganishda uning bevosita harbiy oqibatlari bilan bir qatorda, jamiyatning axborot va mafkuraviy muhitiga ta’sirini ham hisobga olish lozim.

2. Axborot makonining mafkuraviy xavfsizlikdagi o‘rni

Tadqiqotning keyingi natijasi axborot makonining strategik ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatdi.

Freedom House tashkilotining 2025-yilgi *Freedom on the Net* tadqiqotida 72 ta mamlakatdagi internet muhiti baholangan. Tadqiqotga ko‘ra, global internet erkinligi **15-yil ketma-ket pasaygan**. 72 mamlakatning 28 tasida internet erkinligi yomonlashgan, 17 tasida esa umumiy yaxshilanish qayd etilgan. Shuningdek, kamida **57 ta mamlakatda** odamlar onlayn siyosiy, ijtimoiy yoki diniy fikr bildirgani uchun hibsga olingan yoki qamoqqa tashlangan.

2-jadval

2025-yilda global internet makonidagi asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	**Soni**
Tadqiqot qamrab olgan mamlakatlar	72
Internet erkinligi yomonlashgan mamlakatlar	28
Internet erkinligi yaxshilangan mamlakatlar	17
Onlayn fikri uchun hibsga olish yoki qamoqqa tashlash qayd etilgan mamlakatlar	≥57
Global internet erkinligining pasayish davri	15 yil ketma-ket

Manba: Freedom House, *Freedom on the Net 2025*.

Mazkur ko‘rsatkichlar mafkuraviy xavfsizlikning zamonaviy falsafiy mazmunini tushunishda muhimdir. Chunki axborot makonining cheklanishi yoki manipulyatsiya qilinishi insonning voqelikni anglash, axborotni tanlash va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlariga ta’sir qiladi.

Axborot makonida manipulyatsiyaning turli shakllari, jumladan, soxta yoki yashirin homiylikdagi akkauntlar, avtomatlashtirilgan akkauntlar, ishonchli manbalarga o‘xshatilgan saytlar hamda sun’iy intellekt yordamida yaratilgan chalg‘ituvchi materiallar mafkuraviy ta’sirning yangi vositalariga aylanmoqda.

3. O‘zbekistonning raqamli-axborot muhitidagi holati

Tadqiqotning alohida yo‘nalishi O‘zbekistonning raqamli-axborot muhitidagi holatini tahlil qilishga qaratildi.

Freedom House’ning 2025-yilgi mamlakat hisobotida O‘zbekiston internet erkinligi bo‘yicha 29/100 ball bilan “Not Free” kategoriyasida qayd etilgan. Hisobotda internetga kirishdagi to‘siqlar 11/25, kontentga qo‘yiladigan cheklovlar 11/35 va foydalanuvchilar huquqlarining buzilishi 7/40 ballni tashkil etgani ko‘rsatilgan.

Shuningdek, 2025-yil yanvarida ekstremizm va terrorizmni targ‘ib qiluvchi deb baholangan 1 389 ta onlayn material taqiqlangani qayd etilgan. Bu 2024-yil yanvaridagi 800 ta materialga nisbatan 589 taga ko‘p bo‘lib, o‘sish 73,6 foizni tashkil etadi.

3-jadval

O‘zbekistonda internet muhiti bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	2024-yil	2025-yil	O‘zgarish
Freedom on the Net umumiy bali	27	29	+2
Internetga kirishdagi to‘siqlar	—	11/25	—
Kontentga cheklovlar	—	11/35	—
Foydalanuvchilar huquqlari	—	7/40	—
Taqiqlangan ekstremistik va terrorizmni targ‘ib qiluvchi onlayn materiallar	800	1 389	+589

Manba: Freedom House, *Uzbekistan: Freedom on the Net 2025*.

Mazkur ko‘rsatkichni bevosita “mafkuraviy tahdidlar 73,6 foizga oshdi” deb talqin qilish mumkin emas. Chunki u taqiqlangan materiallarni aniqlash va bloklash amaliyotini aks ettiradi. Biroq ushbu statistika raqamli axborot makonida ekstremistik va terroristik mazmundagi materiallarni aniqlash, baholash va cheklash masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashda xavfli kontentga qarshi kurash bilan bir qatorda fuqarolarning axborotni mustaqil va tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi.

4. Mafkuraviy xavfsizlikning asosiy komponentlari

Tadqiqot natijalari asosida proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikning asosiy komponentlari quyidagicha tizimlashtirildi.

4-jadval

Proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikning asosiy komponentlari

№	Komponent	Asosiy mazmuni	Tahdid turi	Kutiladigan natija
1	Axborot xavfsizligi	Ishonchli axborotni aniqlash va himoyalash	Dezinformatsiya	Axborot barqarorligi
2	Epistemologik barqarorlik	Dalil va manbalarni tanqidiy baholash	Manipulyatsiya	Mustaqil xulosa
3	Aksiologik barqarorlik	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash	Qadriyatlar manipulyatsiyasi	Qadriyatlar izchilligi
4	Ijtimoiy-psixologik barqarorlik	Qo‘rquv, nafrat va qutblanishga qarshi immunitet	Psixologik ta’sir	Ijtimoiy birdamlik

5	Fuqarolik mas'uliyati	Axborotdan mas'uliyatli foydalanish	Provokatsion kontent	Mas'uliyatli xulq
6	Tanqidiy tafakkur	Axborotni tahlil qilish va taqqoslash	Soxta xabarlar	Ongli qaror

Mazkur tizimlashtirish natijasida mafkuraviy xavfsizlikning falsafiy modeli o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan uchta asosiy darajani qamrab olishi aniqlandi. Birinchi darajani epistemologik asos tashkil etib, u shaxsning voqelikni anglash, haqiqatni yolg‘on axborotdan, ishonchli faktni esa manipulyativ ta’sirdan ajrata olish qobiliyatini ifodalaydi. Ikkinchi daraja aksiologik asos bilan bog‘liq bo‘lib, bunda shaxs va jamiyat uchun muhim bo‘lgan qadriyatlarning mazmuni, ularning ustuvorligi hamda tashqi mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan barqarorligi namoyon bo‘ladi. Uchinchi daraja esa ijtimoiy-falsafiy asosni tashkil etib, jamiyatdagi birdamlik, fuqarolik identifikatsiyasi, ijtimoiy ishonch va barqarorlik kabi omillarning o‘zaro uyg‘unligini qamrab oladi. Mazkur uch darajaning o‘zaro uyg‘unligi mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashning yaxlit va barqaror tizimini shakllantirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni faqat tashqi axborot ta’siri bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mafkuraviy xavfsizlikning zaiflashuviga ichki ijtimoiy omillar — axborot savodxonligining pastligi, ijtimoiy ishonchsizlik, qadriyatlar bo‘yicha ziddiyatlar, yoshlarning manipulyativ kontentga duch kelishi va tanqidiy tafakkurning yetarlicha shakllanmaganligi ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Proksi urushlarning muhim xususiyatlaridan biri qarama-qarshiliklarning bevosita harbiy maydondan tashqari axborot va kommunikatsiya makoniga ko‘chishidir. Bunday sharoitda axborot oddiy kommunikatsiya vositasi bo‘lib qolmay, strategik ta’sir vositasiga aylanadi.

Axborot oqimlarining tezligi, ijtimoiy tarmoqlarning ommaviyligi va raqamli platformalarning algoritmik xususiyatlari muayyan g‘oya va qarashlarning qisqa vaqt ichida katta auditoriyaga yetib borishiga imkon yaratadi. Natijada insonning voqelikni qanday qabul qilishi va talqin qilishi xavfsizlikning muhim omiliga aylanadi.

Mazkur jarayonni falsafaning gnoseologik yo‘nalishi nuqtayi nazaridan izohlash mumkin. Insonning voqelik haqidagi bilimlari axborotni qabul qilish, qayta ishlash va talqin qilish jarayonida shakllanadi. Agar axborot muhiti manipulyativ yoki dezinformatsion xususiyatga ega bo‘lsa, insonning voqelik haqidagi tasavvuri ham buzilishi mumkin.

Shu jihatdan mafkuraviy xavfsizlikning muhim sharti shaxsning axborot manbasi, mazmuni va ishonchliligini mustaqil ravishda tekshira olishidir. Demak,

tanqidiy fikrlash nafaqat ta'limiy kompetensiya, balki zamonaviy sharoitda xavfsizlikning muhim falsafiy va ijtimoiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mafkuraviy xavfsizlikning yana bir muhim jihati uning aksiologik mazmuni bilan bog‘liq. Har qanday mafkuraviy ta'sir muayyan qadriyatlar tizimiga tayanadi. Proksi qarama-qarshiliklar sharoitida turli tomonlar o‘z manfaatlarini legitimlashtirish uchun erkinlik, adolat, xavfsizlik, milliy manfaat, demokratiya, an'ana yoki inson huquqlari kabi qadriyatlarni turlicha talqin qilishi mumkin.

Shu sababli mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash qadriyatlarni shunchaki tashqi ta'sirdan himoya qilish emas, balki ularning mazmunini anglash, tanqidiy tahlil qilish va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab qiladi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala alohida ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida yoshlar va aholining turli qatlamlari global axborot makonining faol ishtirokchilariga aylanmoqda. Bu jarayon bilim va axborot olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, manipulyativ va destruktiv kontentning tarqalishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Shu sababli mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda davlat siyosati bilan bir qatorda ta'lim tizimi, oila, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda keltirilgan statistik ma'lumotlar sabab-oqibat munosabatlarini o‘z-o‘zidan isbotlamaydi. Shu bois ular proksi urushlar va mafkuraviy xavfsizlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflovchi kontekstual indikatorlar sifatida talqin qilinishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlik zamonaviy jamiyat barqarorligini ta'minlovchi ko‘p qirrali ijtimoiy-falsafiy hodisa ekanligini ko‘rsatdi.

Zamonaviy proksi qarama-qarshiliklarda harbiy vositalar bilan bir qatorda axborot, mafkura, psixologiya va qadriyatlar tizimiga ta'sir ko‘rsatish vositalaridan ham faol foydalanilmoqda. Shu sababli mafkuraviy xavfsizlikning falsafiy asoslarini o‘rganish zamonaviy xavfsizlik paradigmasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy xavfsizlikning falsafiy modeli uch asosiy daraja — epistemologik, aksiologik va ijtimoiy-falsafiy darajalar birligiga asoslanadi. Epistemologik darajada axborotni tanqidiy baholash va haqiqatni manipulyatsiyadan ajratish, aksiologik darajada qadriyatlarni anglash va himoya qilish, ijtimoiy-falsafiy darajada esa birdamlik, fuqarolik identifikatsiyasi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta'minlash ham muhimdir. Qadriyatlarni himoya qilish boshqa qarashlarni to‘liq inkor etish emas, balki shaxs va jamiyatning o‘z qadriyatlarini ongli ravishda anglash, ularni tanqidiy baholash va konstruktiv

muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, proksi urushlar sharoitida mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning falsafiy asosi insonning erkin fikrlashi, haqiqatni anglashga intilishi, qadriyatlarni ongli ravishda tanlashi va ijtimoiy mas'uliyatni his etishi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoffman F.G. Conflict in the 21st Century: The Rise of Hybrid Wars. — Arlington: Potomac Institute for Policy Studies, 2007.
2. Rid T. Cyber War Will Not Take Place. — London: Hurst & Company, 2013.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. — 2nd ed. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
4. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. — Cambridge, MA: MIT Press, 1994.
5. Sunstein C.R. #Republic: Divided Democracy in the Age of Social Media. — Princeton: Princeton University Press, 2017.
6. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. — Strasbourg: Council of Europe, 2017.
7. Freedom House. Freedom on the Net 2025: An Uncertain Future for the Global Internet. — Washington, DC: Freedom House, 2025.
8. Freedom House. Uzbekistan: Freedom on the Net 2025. — Washington, DC: Freedom House, 2025.
9. Uppsala Conflict Data Program (UCDP). *UCDP: Sharp Increase in* Conflicts and Wars. — Uppsala: Uppsala University, 2025.
10. United Nations. United Nations Global Counter-Terrorism Strategy. — New York: United Nations, 2006.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 8-son

UDK 372.881.111.1:004.9

Shermatova Ra'no O'ktam qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Baxodirova Gulnoz Kamalovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti bo'lim boshlig'i

INGLIZ TILINI O'QITISHDA VEB-KVEST VA RAQAMLI KEYS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda raqamli ta'lim vositalarining o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashi hamda raqamli savodxonligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Veb-kvest va raqamli keys usullarining didaktik xususiyatlari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish bosqichlari hamda samarali qo'llash shartlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyalar asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarning o'quvchi faolligini oshirish, amaliy kommunikativ vaziyatlarni yaratish va mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Veb-kvest, raqamli keys, ingliz tilini o'qitish metodikasi, raqamli ta'lim texnologiyalari, interaktiv ta'lim, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli savodxonlik.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ ВЕБ-КВЕСТ И ЦИФРОВЫХ КЕЙС-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. В статье рассматриваются методические основы организации занятий по английскому языку с использованием веб-квестов и цифровых кейс-технологий. В исследовании проанализированы возможности цифровых образовательных средств в развитии коммуникативной компетенции учащихся, навыков самостоятельного обучения, критического мышления и цифровой грамотности. Раскрыты дидактические особенности методов веб-квеста и цифрового кейса, этапы их интеграции в учебный процесс, а также условия их эффективного применения. Кроме того, рассмотрено значение занятий, организованных на основе данных технологий, в повышении активности учащихся, создании практических

коммуникативных ситуаций и развитии навыков самостоятельной поисковой деятельности.

Ключевые слова: веб-квест, цифровой кейс, методика обучения английскому языку, цифровые образовательные технологии, интерактивное обучение, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, критическое мышление, инновационные педагогические технологии, цифровая грамотность.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING ENGLISH LANGUAGE LESSONS BASED ON WEBQUEST AND DIGITAL CASE TECHNOLOGIES

Abstract. This article examines the methodological foundations of organizing English language lessons using webquests and digital case technologies. The study analyzes the potential of digital educational tools in developing students' communicative competence, independent learning skills, critical thinking, and digital literacy. The didactic features of webquest and digital case methods, the stages of their integration into the learning process, and the conditions for their effective implementation are also discussed. Furthermore, the article highlights the importance of lessons organized using these technologies in increasing students' engagement, creating practical communicative situations, and developing independent research and inquiry skills.

Keywords: webquest, digital case, English language teaching methodology, digital educational technologies, interactive learning, communicative competence, independent learning, critical thinking, innovative pedagogical technologies, digital literacy.

Kirish. Ta'lim muhitining transformatsiyasi sharoitida chet tillarini o'qitishning an'anaviy usullari o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalari, tanqidiy fikrlashi, raqamli savodxonligi va tadqiqotchilik faoliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun yetarli imkoniyat bermayapti. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda veb-kvest elementlari va raqamli keys texnologiyalaridan foydalanish asosida mashg'ulotlarni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv interaktiv, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy ta'lim modeliga o'tish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar kommunikativ, kompetensiyaviy, konstruktivistik va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tamoyillariga, shuningdek, tadqiqotga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'rganish va raqamli pedagogika konsepsiyalariga tayanadi. D. Hymesning kommunikativ kompetensiya haqidagi qarashlariga ko'ra, til ta'limining samaradorligi faqat o'zlashtirilgan til birliklari hajmi bilan emas, balki shaxsning real hayotiy vaziyatlarda chet tilidan samarali foydalana olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu

nuqtayi nazardan, veb-kvestlar va raqamli keyslar oddiy yordamchi raqamli vositalar sifatida emas, balki o‘quvchilarning kommunikativ, tadqiqotchilik va muammoli faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar sifatida qaraladi.

Ingliz tilini o‘qitishda veb-kvest elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning raqamli resurslar, multimedia materiallari va autentik internet manbalari bilan ishlash asosidagi tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi. Veb-kvestning asosiy maqsadi o‘quvchilarda kommunikativ va kognitiv vazifalarni hal qilish jarayonida axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, talqin etish va undan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. An’anaviy ta’lim shakllaridan farqli ravishda, veb-kvest o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki axborotni izlovchi, saralovchi va undan amaliy natija yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Raqamli keys texnologiyasi esa muammoli kommunikativ vaziyatlarni tahlil qilish va lingvistik o‘zaro ta’sir jarayonida qaror qabul qilishga asoslangan ta’lim texnologiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli keyslar madaniyatlararo, ijtimoiy, akademik yoki kundalik muloqotga oid real yoxud real hayotga yaqin vaziyatlarni modellashtirib, o‘quvchilardan ingliz tilidan tahlil qilish, dalillash, muhokama qilish va qaror qabul qilish vositasi sifatida foydalanishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda chet tillarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogika va til o‘qitish metodikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olish jarayonini tashkil etish va mashg‘ulotlarni interaktiv shaklda olib borish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda texnologiyaga asoslangan til ta’limi nafaqat til kompetensiyalarini, balki axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida ham baholanadi [1].

Veb-kvest texnologiyasining ilmiy-metodik asoslari B. Dodj tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u internet resurslaridan maqsadli foydalanishga asoslangan tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish modeli sifatida taklif qilingan. Mazkur texnologiyaning asosiy mohiyati o‘quvchilarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va muayyan natijaviy mahsulot yaratishga yo‘naltirishdan iborat. B. Dodj veb-kvestlarni yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantiruvchi hamda o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb qiluvchi pedagogik vosita sifatida tavsiflaydi [2].

Ingliz tilini o‘qitishda veb-kvestlardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ushbu texnologiyaning til ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish va autentik materiallar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan. C. Chapelle kompyuter yordamida til o‘qitish (CALL) yo‘nalishidagi tadqiqotlarida raqamli muhitda tashkil etilgan til faoliyati

o‘quvchilarning kommunikativ tajribasini boyitishi hamda individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini berishini ta’kidlaydi [3].

Raqamli keys texnologiyasi muammoli ta’lim va vaziyatli tahlil metodlariga asoslanib, o‘quvchilarni real hayotga yaqin vaziyatlarda fikrlash, muammoni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. D. Jonassenning muammoli o‘qitish konsepsiyasiga ko‘ra, murakkab va amaliy vazifalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning yuqori darajadagi kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [4]. Shu jihatdan raqamli keyslar ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish va til vositalarini amaliy qo‘llash uchun samarali metodik vosita sifatida qaralishi mumkin.

Raqamli ta’lim vositalarining samaradorligini izohlashda R. Mayerning multimedia ta’lim nazariyasi muhim nazariy asoslardan biridir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quv materiallarini matn, tasvir, audio va video shakllarida maqsadli uyg‘unlashtirish bilimni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi [5]. Shu sababli veb-kvest va raqamli keyslarni ishlab chiqishda multimedia elementlaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning mustaqil faoliyati va motivatsiyasini rivojlantirish masalalari E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasida yoritilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, o‘quvchining faol ishtiroki mustaqillik, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarining qondirilishi bilan bog‘liq. Veb-kvest va raqamli keyslar o‘quvchilarga tanlash, izlanish va hamkorlik qilish imkoniyatini yaratishi orqali ichki motivatsiyani kuchaytirishi mumkin [6].

Metakognitiv rivojlanish masalalari J. Flavell va B. Zimmerman tadqiqotlarida ham alohida o‘rganilgan. Ularning qarashlariga ko‘ra, o‘quvchining o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyati samarali ta’limning muhim shartlaridan biridir [7; 8]. Veb-kvest va raqamli keyslarni bajarish jarayonida o‘quvchilar axborot manbalarini baholaydi, faoliyat strategiyalarini belgilaydi va yakuniy natijalarni tahlil qiladi. Bu jarayon metakognitiv ko‘nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

L. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ham raqamli hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyalarining metodologik asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur nazariyaga ko‘ra, bilim ijtimoiy o‘zaro ta’sir va hamkorlik jarayonida shakllanadi [9]. Veb-kvest va raqamli keyslar guruhli faoliyat, muhokama va hamkorlikdagi topshiriqlar orqali ushbu tamoyilni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan [10; 11]. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda [12].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil ta’lim faoliyati, tanqidiy fikrlashi va raqamli savodxonligini rivojlantirish uchun samarali metodik vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu texnologiyalarni amaliy mashg‘ulotlarga moslashtirish, ularni bosqichma-bosqich qo‘llash, baholash mezonlarini ishlab chiqish va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ingliz tilini o‘qitish jarayonida veb-kvest va raqamli keys texnologiyalaridan integrativ foydalanish orqali mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqish tashkil etadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, kommunikativ-faoliyatli, muammoli va raqamli ta’lim yondashuvlari o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, mustaqil axborot izlash, raqamli manbalarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, guruhda hamkorlik qilish va o‘z fikrini ingliz tilida asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa ingliz tili mashg‘ulotlarini veb-kvest va raqamli keys texnologiyalari asosida tashkil etishning mazmuni, shakllari, metodlari va pedagogik shart-sharoitlaridan iborat.

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini keyingi bosqichda pedagogik tajriba-sinov orqali tekshirish nazarda tutiladi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratish rejalashtiriladi. Nazorat guruhida ingliz tili mashg‘ulotlari amaldagi o‘qitish metodlari asosida, tajriba guruhida esa veb-kvest va raqamli keys texnologiyalarining integratsiyasiga asoslangan metodika yordamida tashkil etilishi ko‘zda tutiladi. Guruhlarni shakllantirishda o‘quvchilarning yoshi, sinfi, boshlang‘ich ingliz tili darajasi va ta’lim sharoitlarining imkon qadar o‘xshash bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Metodikani ishlab chiqishda o‘zaro bog‘liq bosqichlar tizimidan foydalanildi. Dastlab o‘quvchilarga real hayotiy yoki ta’limiy vaziyatga asoslangan muammo ingliz tilida taqdim etilib, ularning mavjud bilimlarini faollashtirish va yangi axborot izlashga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltirish ko‘zda tutiladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar individual yoki kichik guruhlarda internet va tavsiya etilgan raqamli manbalardan zarur ma’lumotlarni izlaydi. Bu jarayonda axborot manbalarini tanlash, asosiy va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratish, ma’lumotlarning ishonchliligini baholash hamda ingliz tilidagi materiallarni tushunish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Shundan so‘ng to‘plangan ma’lumotlar raqamli keys mazmunidagi muammoli vaziyat bilan bog‘lanadi. O‘quvchilar muammoning sabablarini aniqlaydi, mavjud yechimlarni taqqoslaydi va muqobil qarorlarni ishlab chiqadi. Keyingi jarayonda guruhli muhokama tashkil etilib, o‘quvchilar o‘z yechimlarini ingliz tilida bayon

qiladi, fikr bildiradi, dalillar keltiradi, savollarga javob beradi va umumiy qarorga keladi. Bu bosqichda speaking va listening ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Yakuniy bosqichda ishlab chiqilgan yechim prezentatsiya, infografika, video, elektron poster, hisobot yoki boshqa raqamli mahsulot shaklida tayyorlanib, ingliz tilida taqdim etiladi. Mashg‘ulot oxirida o‘quvchilarning faoliyati o‘qituvchi bahosi, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash asosida tahlil qilinadi.

Veb-kvest va raqamli keys topshiriqlarining mazmuni ingliz tilini real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiriladi. Veb-kvest topshiriqlari o‘quvchilardan ingliz tilidagi elektron manbalarni izlash, o‘qish, saralash, taqqoslash va umumlashtirishni talab qiladi. Raqamli keyslar esa muayyan muammoli vaziyatni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va tanlangan qarorni ingliz tilida asoslashga yo‘naltiriladi. Masalan, “Planning an Eco-Friendly School”, “Organizing a School Trip”, “Healthy Lifestyle for Teenagers”, “Solving Environmental Problems in Our City” kabi mavzulardan foydalanish mumkin. Bunday topshiriqlarda o‘quvchi faqat til birliklarini o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki axborotni mustaqil izlovchi, muammoni tahlil qiluvchi va kommunikativ faoliyat orqali yechim ishlab chiquvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodikaning samaradorligini baholash uchun lingvistik, kommunikativ, axborot-raqamli, muammoli-tahliliy, hamkorlik va refleksiv mezonlardan foydalanish nazarda tutiladi. Lingvistik mezon doirasida o‘quvchilarning lug‘at boyligi, grammatik birliklardan to‘g‘ri foydalanishi va fikrining til jihatdan aniqligi baholanadi. Kommunikativ mezon ingliz tilida fikr bildirish, muloqotga kirishish, savol-javob qilish va o‘z pozitsiyasini asoslash qobiliyatini qamrab oladi. Axborot-raqamli mezon internet manbalaridan maqsadli foydalanish, zarur axborotni izlash, saralash va uning ishonchliligini baholash ko‘nikmalarini ifodalaydi. Muammoli-tahliliy mezon muammoni aniqlash, sabab va oqibatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda maqbul qarorni asoslash qobiliyatini baholashga xizmat qiladi. Hamkorlik mezonida guruhda vazifalarni taqsimlash, boshqa o‘quvchilarning fikrlarini tinglash, muhokamada faol qatnashish va umumiy natijaga hissa qo‘shish darajasi hisobga olinadi. Refleksiv mezon esa o‘quvchining o‘z faoliyatini baholashi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlashi va keyingi faoliyat uchun tegishli xulosalar chiqarishini nazarda tutadi.

Har bir mezon bo‘yicha ko‘rsatkichlarni yuqori, o‘rta va past darajalarda baholash imkonini beruvchi diagnostik rubrikalarni ishlab chiqish rejalashtiriladi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalaniladi. Nazariy bosqichda ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlari qo‘llanadi. Empirik bosqichda pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, diagnostik topshiriqlar, test, ekspert baholash va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Pedagogik tajriba-sinov amalga oshirilgandan so‘ng tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. Dastlab tavsifiy statistika ko‘rsatkichlari, jumladan, o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, foiz va o‘sish dinamikasi aniqlanadi. Guruhlarning boshlang‘ich holati va tajribadan keyingi natijalari o‘rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini aniqlashda ma’lumotlarning taqsimoti va tadqiqot dizayniga mos parametrik yoki noparametrik mezonlardan foydalanish rejalashtiriladi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, faqat statistik ahamiyatlilik bilan cheklanib qolmasdan, metodikaning amaliy ta’sirini aniqlash maqsadida effekt hajmini (effect size) hisoblash ham nazarda tutiladi. Bunday yondashuv veb-kvest va raqamli keys texnologiyalariga asoslangan metodikaning an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan o‘quvchilarning kommunikativ, axborot-raqamli va muammoli-tahliliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi veb-kvestning axborot-qidiruv imkoniyatlari bilan raqamli keys texnologiyasining muammoli-tahliliy xususiyatlarini yagona didaktik jarayonda integratsiyalashga asoslanadi. Bunda ingliz tilini o‘rganish jarayoni tayyor bilimni o‘zlashtirish modelidan “muammoni anglash – axborotni izlash – tahlil qilish – ingliz tilida muloqot qilish – yechim ishlab chiqish – raqamli mahsulot yaratish – refleksiya” modeliga yo‘naltiriladi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida ingliz tilini o‘qitishda veb-kvest va raqamli keys texnologiyalarini o‘zaro integratsiyalash asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodika o‘quvchilarning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bilan bir qatorda, axborotni mustaqil izlash va qayta ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, jamoada hamkorlik qilish hamda raqamli vositalardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirildi.

Yana bir muhim yo‘nalish — an’anaviy qurilish materiallari va texnologiyalaridan foydalanishga qaytishdir. YUNESKO va xalqaro ekspertlar tavsiyalarida tarixiy g‘ishtli inshootlarni ta’mirlashda ularning dastlabki qurilish texnologiyasi va materiallarining fizik-kimyoviy xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi. Shu nuqtayi nazardan, sement asosidagi qorishmalardan me’yoridan ortiq foydalanish o‘rniga tarixiy obidalarda qo‘llanilgan ganch, ohak va boshqa an’anaviy bog‘lovchi materiallardan foydalanish masalasiga e’tibor kuchaydi. Zamonaviy sement qorishmalarining ayrim hollarda g‘isht tarkibida namlik va tuzlarning to‘planishiga sabab bo‘lishi, natijada qurilish materialining yemirilish jarayonini tezlashtirishi mumkinligi restavratsiya amaliyotida hisobga olinadigan muhim omillardan biridir [7].

Tarixiy obidalarni saqlashda ularning poydevori va konstruksiyalarini namlik hamda sho‘rlanishdan himoya qilish ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlarda gidrogeologik sharoit, yer osti suvlari sathi va tuproqdagi namlik me’moriy yodgorliklarning uzoq muddat saqlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ayrim hududlarda yer osti suvlari sathini nazorat qilish, drenaj tizimlarini takomillashtirish va poydevorlarni namlikdan himoyalashga qaratilgan ilmiy-amaliy loyihalar amalga oshirildi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqot va loyihalarda YUNESKO hamda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ko‘magida olib borilgan ishlar ham muhim o‘rin tutdi [5].

Shahrisabz saboqlari va boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi

O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini muhofaza qilish tajribasida Shahrisabz tarixiy markazi bilan bog‘liq jarayon alohida ahamiyatga ega. 2016-yilda tarixiy markaz hududida keng ko‘lamli buzish, obodonlashtirish va yangi qurilish ishlari olib borilishi natijasida tarixiy shahar muhitining yaxlitligi va an’anaviy shaharsozlik tuzilishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatildi. Mazkur jarayon xalqaro ekspertlar tomonidan tanqidiy baholanib, YUNESKO Umumjahon merosi qo‘mitasining 40-sessiyasida Shahrisabz tarixiy markazini “Xavf ostidagi umumjahon merosi ro‘yxati”ga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi [8].

Shahrisabz tajribasi tarixiy meros obyektlarini muhofaza qilishda alohida yodgorliklarni saqlash bilan bir qatorda, ularni o‘rab turgan tarixiy shahar muhiti, vizual panoramalar, an’anaviy ko‘cha tuzilishi va obyektlarning o‘zaro bog‘liqligini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur holat tarixiy hududlarda qurilish va obodonlashtirish loyihalarini amalga oshirishdan oldin ularning meros obyektlariga ehtimoliy ta’sirini chuqur baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini yuzaga chiqardi.

Shahrisabz bilan bog‘liq vaziyatdan keyingi davrda O‘zbekistonda madaniy merosni boshqarish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan institutsional va huquqiy choralar kuchaytirildi. Madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha vakolatli davlat organlari faoliyati takomillashtirildi, ekspertiza va monitoring mexanizmlarining ahamiyati oshirildi. Shuningdek, jamoatchilik va

mutaxassislarning tarixiy obyektlar taqdiridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar ilgari surildi.

YUNESKOning xalqaro merosni muhofaza qilish amaliyotida muhim o‘rin tutuvchi vositalardan biri — Meros ta’sirini baholash (Heritage Impact Assessment — HIA) mexanizmi ham tarixiy hududlarda rejalashtirilayotgan qurilish va infratuzilma loyihalarining meros obyektlariga ta’sirini oldindan baholash imkonini beradi [2, 8]. Bunday baholash orqali rejalashtirilayotgan loyihaning tarixiy muhitga, me’moriy yaxlitlikka, vizual panoramalarga va obyektning autentikligiga ehtimoliy ta’siri aniqlanadi.

Umuman olganda, Shahrisabz tajribasi O‘zbekistonda tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilishda xalqaro standartlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Bugungi kunda restavratsiya va qurilish ishlarini faqat texnik vazifa sifatida emas, balki tarixiy, me’moriy, madaniy va ijtimoiy omillarni birgalikda hisobga oladigan kompleks jarayon sifatida tashkil etish zarur. Ayniqsa, Umumjahon merosi obyektlarida har qanday o‘zgarish ilmiy asoslangan loyiha, malakali ekspertiza, monitoring va xalqaro tavsiyalar bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi tarixiy merosning uzoq muddat saqlanishining muhim shartlaridan biridir.

Muhokama. O‘zbekiston me’moriy merosini asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda YUNESKO bilan hamkorlik muhim ilmiy, metodologik va amaliy ahamiyatga ega. Tashkilotning xalqaro standartlari, ekspert tavsiyalari va Umumjahon merosi tizimi mamlakatdagi tarixiy-madaniy obyektlarni muhofaza qilishga bo‘lgan yondashuvlarning takomillashishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, amaliyot tahlili xalqaro me’yorlar va real jarayonlar o‘rtasida ayrim ilmiy-metodologik hamda tashkiliy muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Birinchi muhim masala — autentiklikni saqlash va tarixiy obyektlardan zamonaviy foydalanish ehtiyoji o‘rtasidagi muvozanatdir. YUNESKO va xalqaro restavratsiya tamoyillari tarixiy obidaning dastlabki me’moriy qiyofasi, moddiy tarkibi, konstruktiv tuzilishi va tarixiy qatlamlarini imkon qadar saqlab qolishni talab qiladi. Biroq turizm oqimining ortishi, tarixiy binolarni yangi funksiyalarga moslashtirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini o‘tkazish va zamonaviy xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaratish zarurati ayrim hollarda obyektning tarixiy va konstruktiv yaxlitligiga bosim o‘tkazishi mumkin [6]. Shu sababli tarixiy obidalardan foydalanish masalasida ularning iqtisodiy va turistik salohiyatidan foydalanish bilan bir qatorda, muhofaza rejimining qat’iy talablariga rioya etish muhimdir.

Ikkinchi muammo — malakali kadrlar va restavratsiya maktabining uzviyligi bilan bog‘liq. Sovet davridan keyingi davrda professional restavratorlar, me’mor-restavratorlar, koshinkorlar, ganchkorlar va boshqa an’anaviy hunarmandlar tayyorlash tizimida ayrim uzilishlar yuzaga keldi. Ayniqsa, an’anaviy “usta-shogird” maktabi bilan zamonaviy ilmiy restavratsiya metodologiyasining to‘liq integratsiya qilinmagani ayrim obyektlarda restavratsiya jarayonining ilmiy asoslanganlik darajasiga ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi hollarda tarixiy material va

bezaklarni saqlab qolish o‘rniga ularni yangidan tayyorlangan nusxalar bilan almashtirishga ustuvorlik berilishi obyektning autentiklik darajasini pasaytirishi mumkin [7, 9]. Shu bois an’anaviy hunarmandchilik tajribasini zamonaviy konservatsiya ilmi bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Uchinchi muhim omil — iqlimiy va ekologik sharoitlarning tarixiy obidalarga ta’siridir. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik o‘zgarishlar, tuproq sho‘rlanishi, namlik rejimining o‘zgarishi va haroratning keskin tebranishlari, ayniqsa, Xiva va Buxoro kabi hududlarda joylashgan xom g‘isht, paxsadan qurilgan hamda pishiq g‘ishtli inshootlarning saqlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda tarixiy materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish, mikroiqlim monitoringini yo‘lga qo‘yish va konservatsiya ishlarida zamonaviy ilmiy-texnologik usullardan foydalanish talab etiladi. Shu jihatdan YUNESKO bilan bir qatorda xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, jumladan, Getty Conservation Institute kabi tashkilotlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [10].

Yuqoridagi masalalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish faqat restavratsiya ishlarini amalga oshirish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ilmiy tadqiqot, doimiy monitoring, malakali ekspertiza, an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni oqilona qo‘llash va jamoatchilik ishtirokini ta’minlashni o‘z ichiga oluvchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini muhofaza qilishda YUNESKO bilan xalqaro hamkorlikning muhim ilmiy va amaliy natijalarga ega ekanligi aniqlandi. Olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, YUNESKO O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini xalqaro miqyosda tanitish, uni muhofaza qilishning zamonaviy metodologik asoslarini shakllantirish va milliy restavratsiya amaliyotini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishda muhim o‘rin tutadi. YUNESKOning Umumjahon merosi tizimi hamda Venetsiya xartiyasi kabi xalqaro hujjatlar tarixiy obyektlarning autentikligi, yaxlitligi va tarixiy muhitini saqlashga qaratilgan muhim tamoyillarni belgilab beradi.

Ikkinchidan, tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlashda faqat qayta tiklashga qaratilgan restavratsiya ishlaridan ko‘ra, ilmiy asoslangan konservatsiya, muntazam monitoring va profilaktik muhofaza choralariga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Obyektning saqlanib qolgan tarixiy materiallari va konstruktiv elementlarini imkon qadar asrash uning autentikligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir.

Uchinchidan, Shahrisabz tarixiy markazi tajribasi tarixiy shaharlar hududida yangi qurilish, obodonlashtirish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdan oldin ularning tarixiy-madaniy muhitga ta’sirini chuqur baholash zarurligini ko‘rsatdi. Shu sababli Umumjahon merosi obyektlari va ularning muhofaza

hududlarida yirik loyihalarni amalga oshirishda xalqaro ekspertlar tavsiyalari, ilmiy ekspertiza va Heritage Impact Assessment (HIA) mexanizmlaridan samarali foydalanish muhimdir.

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini samarali muhofaza qilish uchun malakali restavratorlar va konservatorlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. An’anaviy “usta-shogird” maktabini zamonaviy restavratsiya va konservatsiya metodologiyasi bilan uyg‘unlashtirish, yosh mutaxassislarni xalqaro tajriba asosida tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot va amaliy restavratsiya o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish muhim vazifalardan biridir.

Beshinchidan, tarixiy obidalarga iqlimiy va ekologik omillarning ta’sirini muntazam o‘rganish, namlik, sho‘rlanish, harorat va yer osti suvlari holatini monitoring qilish tizimini kuchaytirish lozim. Ayniqsa, xom g‘isht va paxsadan qurilgan tarixiy inshootlar uchun hududning tabiiy-iqlimiy xususiyatlariga mos konservatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish talab etiladi.

Oltinchidan, kelgusida YUNESKO, ICOMOS, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va milliy madaniy merosni muhofaza qiluvchi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini asrash samaradorligini oshiradi. Bunda xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni O‘zbekistonning tarixiy, me’moriy, iqlimiy va madaniy xususiyatlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosini asrashning samarali modeli “saqlash — ilmiy o‘rganish — monitoring — ehtiyotkor konservatsiya — zarur hollarda ilmiy asoslangan restavratsiya” tamoyillari asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv tarixiy obidalarning nafaqat bugungi holatini saqlash, balki ularni kelajak avlodlarga o‘zining tarixiy va madaniy qadr-qimmatini imkon qadar yo‘qotmagan holda yetkazish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent: Sharq, 1998. — 32 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. — 2001. — № 9–10. — 180-modda.
3. UNESCO World Heritage Centre. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention. — Paris: UNESCO, 2021. — 176 p.
4. ICOMOS. International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites (The Venice Charter, 1964). — ICOMOS, 1965. — 4 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. O‘zbekistondagi YUNESKO Umumjahon merosi obyektlarining holati bo‘yicha yillik hisobotlar (2018–2023 yy.). — Agentlikning joriy arxivi.

6. Uralov A.S. O‘zbekiston me’moriy merosini ta’mirlash va qayta tiklash muammolari // Me’morchilik va qurilish muammolari. — 2019. — № 2. — B. 12–18.

7. Пугаченкова Г.А. Архитектурные шедевры Бухары и Самарканда: вопросы охраны и консервации. — Ташкент: Фан, 1992. — 148 с.

8. UNESCO World Heritage Committee. Decisions adopted by the World Heritage Committee at its 40th session (Istanbul, 2016). — WHC/16/40.COM/19. — Paris: UNESCO, 2016. — P. 34–37.

9. Массон М.Е., Манковская Л.Ю. Реставрация памятников архитектуры Узбекистана: опыт и проблемы. — Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1980. — 120 с.

10. Ртвеладзе Э.В. Цивилизационный перекресток Узбекистана и охрана культурного наследия // Ўзбекистон тарихи. — 2020. — № 1. — С. 45–53.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI JURNALI
2026-yil 8-son

UDK: 37.013.42:373.3/.5

Mo‘minova Adolat Safarovna,
Termiz shahridagi 26-umumta’lim maktabi maslahatchisi

O‘QUVCHI SHAXSINING TA’LIMIY AGENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning nazariy va pedagogik asoslari yoritilgan. Ta’limiy agentlik o‘quvchining o‘z ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi, maqsad belgilashi, mustaqil qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi va ta’lim natijalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi bilan bog‘liq kompetensiyalar majmui sifatida talqin etilgan. Tadqiqotda ta’limiy agentlikning motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid, refleksiv va mas’uliyat komponentlari ajratib ko‘rsatilgan. O‘quvchi agentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik modelning maqsad, mazmun, metodik, tashkiliy va natijaviy tarkibiy qismlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, tanlov, maqsad belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, formativ baholash, muammoli va loyiha asosidagi ta’lim kabi mexanizmlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi roli ham qayta ko‘rib chiqilib, uning bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatidagi vazifalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’limiy agentlik, o‘quvchi shaxsi, pedagogik model, mustaqil ta’lim, ta’lim subyekti, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya, motivatsiya, formativ baholash, loyiha asosidagi ta’lim, pedagogik mexanizm.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ АГЕНТНОСТИ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕГОСЯ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и педагогические основы развития образовательной агентности личности учащегося в современном образовательном процессе. Образовательная агентность рассматривается как совокупность компетенций, связанных с активным участием учащегося в собственном образовательном процессе, постановкой целей, самостоятельным принятием решений, планированием и контролем собственной деятельности, а также ответственностью за результаты обучения. Выделены мотивационный, когнитивный, деятельностный, рефлексивный и ответственный компоненты образовательной агентности. Разработана педагогическая модель развития агентности учащихся, включающая целевой, содержательный, методический, организационный и результативный

компоненты. Проанализированы педагогические возможности механизмов выбора, целеполагания, самоуправления, рефлексии, формативного оценивания, проблемного и проектного обучения. Особое внимание уделено изменению роли учителя в образовательном процессе: от основного источника знаний к организатору, координатору и педагогическому консультанту самостоятельной деятельности учащегося.

Ключевые слова: образовательная агентность, личность учащегося, педагогическая модель, самостоятельное обучение, субъект образования, самоуправление, рефлексия, мотивация, формативное оценивание, проектное обучение, педагогический механизм.

PEDAGOGICAL MODEL AND MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL AGENCY

Abstract. This article examines the theoretical and pedagogical foundations of developing students' educational agency in the modern educational process. Educational agency is interpreted as a set of competencies associated with students' active participation in their own learning, goal setting, independent decision-making, planning and monitoring of learning activities, and responsibility for educational outcomes. The study identifies motivational, cognitive, activity-based, reflective, and responsibility-related components of educational agency. A pedagogical model for developing students' agency is proposed, consisting of target, content, methodological, organizational, and outcome components. The pedagogical potential of such mechanisms as choice, goal setting, self-regulation, reflection, formative assessment, problem-based learning, and project-based learning is analyzed. Particular attention is paid to reconsidering the teacher's role in the educational process. The teacher is viewed not only as a source of knowledge but also as an organizer, facilitator, coordinator, and supporter of students' independent learning activities.

Keywords: educational agency, student personality, pedagogical model, independent learning, learner agency, self-regulation, reflection, motivation, formative assessment, project-based learning, pedagogical mechanism.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchining faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki o'z ta'lim faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi, muammolarni hal etishi va o'z rivojlanish yo'nalishini belgilashi muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda. Axborot hajmining tez sur'atlarda ortib borishi, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga chuqur kirib kelishi hamda kasbiy faoliyatga qo'yilayotgan yangi talablar shaxsning mustaqil o'rganish va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

An'anaviy ta'lim modelida ko'pincha o'qituvchi asosiy bilim manbai, o'quvchi esa bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida qaralgan. Bunday yondashuv ma'lum

darajada zarur bo‘lsa-da, bugungi ta’lim ehtiyojlari nuqtayi nazaridan o‘quvchining tashabbuskorligi, mustaqilligi va ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, so‘nggi yillarda xalqaro pedagogik tadqiqotlarda learner agency, ya’ni o‘quvchi ta’limiy agentligi tushunchasiga alohida e’tibor qaratilmoqda [6, 7].

Ta’limiy agentlik o‘quvchining o‘z ta’lim jarayonini anglab, unda faol ishtirok etishi, maqsad va vazifalarni belgilashi, mavjud imkoniyatlardan foydalanishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi va o‘z faoliyati natijalariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini ifodalaydi. Agentlik tushunchasi oddiy “mustaqillik” tushunchasidan kengroq bo‘lib, unda o‘quvchining nafaqat mustaqil faoliyati, balki o‘z faoliyatini anglash, rejalashtirish, boshqarish, baholash va zarur hollarda o‘zgartirish qobiliyati ham mujassamlashadi [2, 9].

O‘quchi ta’limiy agentligining rivojlanishi uning shaxsiy mas’uliyati, ichki motivatsiyasi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, muammolarni mustaqil hal qilishi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchiga ta’lim jarayonida muayyan tanlov huquqini berish, uning fikrini tinglash va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kelgusidagi mustaqil hayot va kasbiy faoliyat uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan, o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli va mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish hamda ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan pedagogik model va mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun ta’limiy agentlik tushunchasining pedagogik mazmunini ochib berish, uning asosiy komponentlarini aniqlash, o‘quvchi agentligini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni belgilash, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning o‘rnini tahlil qilish hamda amaliy mexanizmlarni tavsiflash vazifalari belgilandi.

Material va metodlar. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va subyekt-subyekt yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik kuzatish kabi metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil yordamida ta’limiy agentlikning mazmuni va tarkibiy xususiyatlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali o‘quvchi agentligini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv ta’limiy agentlikni alohida ko‘nikma sifatida emas, balki motivatsiya, bilim, faoliyat, refleksiya va mas’uliyatning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqish imkonini berdi. Modellashtirish metodi asosida esa o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi.

Ta'limiy agentlik tushunchasining pedagogik mohiyati. Ta'limiy agentlik o'quvchining ta'lim jarayonida faol va ongli subyekt sifatida ishtirok etishini anglatadi [2, 7, 9]. Bunda o'quvchi unga berilgan topshiriqlarni shunchaki bajaruvchi emas, balki o'z faoliyatining maqsadi, mazmuni, usuli va natijasini muayyan darajada belgilay oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'limiy agentlikning muhim xususiyati shundaki, o'quvchi o'z ta'lim faoliyatining natijalarini tashqi omillargagina bog'lab qo'ymaydi. Aksincha, u o'z imkoniyatlarini baholash, zarur resurslarni izlash, qiyinchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini izlashga intiladi. Shu sababli ta'limiy agentlik o'quvchining mas'uliyat, tashabbuskorlik, mustaqillik va refleksivlik kabi sifatlari bilan chambarchas bog'liq.

Ta'limiy agentlikni rivojlantirish jarayonida o'quvchiga "nima qilish kerak?" degan savol bilan bir qatorda "nima uchun buni qilaman?", "qanday usuldan foydalanaman?", "natijamni qanday baholayman?" va "keyingi faoliyatimni qanday takomillashtiraman?" kabi savollarni qo'yish imkoniyati yaratiladi. Natijada ta'lim jarayoni o'quvchi uchun faqat bilim olish jarayoni emas, balki o'z faoliyatini boshqarish va rivojlantirish jarayoniga aylanadi.

Ta'limiy agentlikning tarkibiy komponentlari. O'quvchi ta'limiy agentligi o'zaro uzviy bog'langan bir qator komponentlardan tarkib topgan murakkab pedagogik hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishida, avvalo, motivatsion komponent muhim o'rin tutadi. Mazkur komponent o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishi, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ya olishi hamda ularga erishishga intilishi bilan tavsiflanadi. Ichki motivatsiyasi shakllangan o'quvchi o'quv topshiriqlarini faqat baho olish yoki tashqi talabni bajarish vositasi sifatida emas, balki yangi bilim va tajribalarni egallash imkoniyati sifatida qabul qiladi [3, 4]. Ta'limiy agentlikning kognitiv komponenti o'quvchining bilimlarni mustaqil egallashi, axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli muhitda axborot oqimining kengligi o'quvchidan faqat kerakli ma'lumotni topishni emas, balki uning ishonchliligini aniqlash, turli manbalarni qiyoslash va zarur axborotni saralash ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etadi.

Faoliyat komponenti o'quvchining egallagan bilim va ko'nikmalarini amaliy vaziyatlarda qo'llashi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirishi va belgilangan maqsad asosida amalga oshira olishi bilan bog'liq. Bunda o'quvchining tashabbus ko'rsatishi, muammoni hal qilish yo'llarini izlashi va o'z qarorlarini amalda sinab ko'rishi muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiv komponent esa o'quvchining o'z faoliyati va uning natijalarini tahlil qilishi, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashi hamda kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish uchun tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, mas'uliyat komponenti o'quvchining qabul qilgan qarorlari, amalga oshirgan faoliyati va erishgan ta'lim natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni his qilishi orqali namoyon bo'ladi. Mazkur komponentlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi o'quvchining ta'lim jarayonida passiv ijrochi emas, balki o'z ta'lim

faoliyatini ongli ravishda boshqara oladigan faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [1, 5, 10].

O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik modeli. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish pedagogik modelini o‘zaro bog‘langan maqsadli, mazmuniy, metodik, tashkiliy va natijaviy komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu modelning maqsadli komponenti o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol subyektlik mavqeini shakllantirishga, uning mustaqil fikrlashi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi [2, 7]. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchining ta’lim jarayonida tayyor bilimlarni qabul qiluvchi sifatidagi emas, balki o‘z rivojlanish yo‘lini anglaydigan va faoliyatini ongli tashkil eta oladigan shaxs sifatidagi o‘rnini kuchaytirishga qaratiladi.

Modelning mazmuniy komponenti o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish, axborot bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topish, o‘z faoliyatini baholash hamda refleksiya olib borish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim mazmuni o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilishi, shu bilan birga, ularning kundalik hayoti va real vaziyatlar bilan bog‘lanishi muhimdir. Bu esa o‘zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatini anglash va ulardan turli sharoitlarda foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Metodik komponent ta’limiy agentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuv va metodlarni qamrab oladi. Jumladan, muammoli ta’lim, loyiha asosidagi faoliyat, tadqiqot topshiriqlari, hamkorlikda o‘qitish, o‘quvchilarga tanlash imkoniyatini beruvchi topshiriqlar, formativ baholash hamda refleksiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi [5, 7, 10]. Bunday metodlar o‘quvchini tayyor yechimni kutishga emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilish, turli variantlarni ko‘rib chiqish va o‘z qarorini asoslashga yo‘naltiradi.

Tashkiliy komponent o‘quvchilarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchiga mustaqil ishlash, guruhda hamkorlik qilish, o‘z qiziqishi va imkoniyatlariga mos ta’lim yo‘nalishini tanlash, shuningdek, o‘z faoliyatini rejalashtirish va boshqarish imkoniyatining berilishi uning ta’limiy agentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Natijaviy komponent esa amalga oshirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini o‘quvchilarning mustaqilligi, ichki motivatsiyasi, mas’uliyat hissi, refleksivligi, qaror qabul qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarida yuz beradigan ijobiy o‘zgarishlar orqali baholash imkonini beradi. Shu tariqa, mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchi ta’limiy agentligini izchil va tizimli rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik modelning yaxlitligini ta’minlaydi.

Natijalar. Tadqiqotning nazariy tahlili asosida o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi mavqeini

mustahkamlashi aniqlandi. Bunda o‘quvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi kuchayadi, mustaqil maqsad belgilash, o‘quv faoliyatini rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish qobiliyatlari takomillashadi. Ta’lim natijalari uchun shaxsiy mas’uliyatning ortishi o‘quvchining o‘z faoliyatiga ongli munosabatini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlari mustahkamlanib, o‘quvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyati uchun kengroq imkoniyatlar yuzaga keladi.

O‘qituvchining rolini qayta ko‘rib chiqish. Ta’limiy agentlikni rivojlantirish o‘qituvchining rolini kamaytirmaydi, aksincha, uning pedagogik faoliyati mazmunini o‘zgartiradi. O‘qituvchi bilimning yagona manbai bo‘lishdan ko‘ra, o‘quvchining ta’limiy faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Bunday sharoitda o‘qituvchi o‘quvchiga tanlov imkoniyatini beradi, savol qo‘yish va mustaqil izlanishni rag‘batlantiradi, xatoni jazolash vositasi emas, balki o‘rganish va rivojlanish imkoniyati sifatida baholaydi. Shuningdek, o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish, refleksiya uchun sharoit yaratish, uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda faqat yakuniy natijaga emas, balki rivojlanish dinamikasiga e’tibor qaratish o‘qituvchining muhim vazifalaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, o‘quvchiga haddan tashqari erkinlik berish ta’limiy agentlikning avtomatik ravishda shakllanishini anglatmaydi. Tanlov imkoniyati aniq maqsad, belgilangan mezon, zarur resurslar va pedagogik ko‘mak bilan uyg‘unlashtirilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Ta’limiy agentlikni rivojlantirishning pedagogik shartlari. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab etadi. Avvalo, sinfda psixologik jihatdan xavfsiz, o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan va xatodan qo‘rqmaydigan muhit yaratilishi lozim. Bunday muhit o‘quvchining tashabbus ko‘rsatishi va o‘z fikrini himoya qilishiga imkon beradi.

Shuningdek, o‘quvchiga real tanlov va qaror qabul qilish imkoniyatlarini berish, topshiriqlarni faqat reproduktiv xarakterda emas, balki muammoli, ijodiy va tadqiqotga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish muhimdir. Baholash jarayoni ham o‘quvchini passiv obyektga aylantirmasdan, uni o‘z natijalarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va keyingi faoliyatini rejalashtirishga jalb etishi kerak. Shu bilan birga, ota-ona, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi ta’limiy agentlikni rivojlantirish uchun muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi.

Ta’limiy agentlikni rivojlantirish mexanizmlari. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish uning ta’lim jarayonidagi mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas’uliyatini qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik mexanizmlarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Bunda o‘quvchiga tanlov imkoniyatini berish muhim ahamiyatga ega. Topshiriqni bajarish usuli, foydalaniladigan axborot manbasi yoki natijani taqdim etish shaklini tanlash o‘quvchining ta’lim jarayoniga daxldorlik

hissini kuchaytiradi. Masalan, bir mavzu doirasida taqdimot, loyiha, video, esse yoki infografika tayyorlash kabi variantlarni taklif etish mumkin.

Maqsadni mustaqil belgilash ham ta'limiy agentlikning muhim mexanizmlaridan biridir. Dars yoki loyiha boshida "Men nimani bilaman?", "Nimani bilishni xohlayman?" va "Bunga qanday erishaman?" kabi savollar o'quvchining o'z faoliyatini anglab, rejalashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchi vaqtni to'g'ri taqsimlash, zarur resurslarni tanlash, bajarilgan ishlarni nazorat qilish va zaruratga ko'ra o'z rejasiga o'zgartirish kiritishni o'rganishi lozim [5, 10]. Bunda kundalik reja, chek-list, individual ta'lim rejasi va elektron portfolio kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'limiy agentlikni rivojlantirishda refleksiya va formativ baholash ham muhim o'rin tutadi. Dars yoki topshiriq yakunida "Men nimani o'rgandim?", "Qanday qiyinchilikka duch keldim?" va "Keyingi safar nimani boshqacha qilaman?" kabi savollar o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi. Aniq baholash mezonlari, o'zini o'zi va tengdoshlarini baholash, shuningdek, konstruktiv fikr-mulohazalar o'quvchining o'z natijalarini anglab, keyingi faoliyatini takomillashtirishiga xizmat qiladi [5, 10].

Muammoli va loyiha asosidagi ta'lim esa o'quvchini mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va amaliy muammolarga yechim topishga undaydi. Loyiha jarayonida o'quvchi muammoni aniqlaydi, maqsad belgilaydi, axborot izlaydi, faoliyatini rejalashtiradi va natijani taqdim etadi. Shu sababli ushbu yondashuv ta'limiy agentlikning bir qator tarkibiy jihatlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchi agentligi. Raqamli texnologiyalar o'quvchi ta'limiy agentligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, interaktiv topshiriqlar, elektron portfolio va onlayn hamkorlik vositalari o'quvchiga ta'lim resurslarini mustaqil izlash, tanlash va ulardan foydalanish imkonini beradi.

Biroq raqamli vositalarning o'zi ta'limiy agentlikni shakllantirish uchun yetarli emas. O'quvchi axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni ajratish, raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va o'z vaqtini to'g'ri boshqarishni ham o'rganishi zarur. Shu bois raqamli kompetentlik zamonaviy sharoitda ta'limiy agentlikning muhim tarkibiy jihatlaridan biri hisoblanadi [6, 7].

Oila va ta'lim muassasasi hamkorligining o'rni. O'quvchining ta'limiy agentligi nafaqat ta'lim muassasasida, balki oiladagi muhit ta'sirida ham shakllanadi. Ota-onaning farzand fikrini tinglashi, unga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berishi va xatolarini rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishi o'quvchida mas'uliyat va tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

Shu sababli maktab va oila hamkorligi ta'limiy agentlikni rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Ota-onalar farzandini doimiy nazorat qilishdan ko'ra, uning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, zarur holatlarda maslahat berishi va o'z fikrini shakllantirishiga imkon yaratishi maqsadga muvofiq.

Muhokama. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish masalasi ta’lim jarayonidagi an’anaviy “o‘qituvchi — bilim beruvchi, o‘quvchi — bilim oluvchi” munosabatlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Bunda o‘qituvchining pedagogik ta’siri yo‘qolmaydi, balki uning mazmuni o‘zgaradi. O‘qituvchi o‘quvchi faoliyatini to‘liq nazorat qiluvchi shaxsdan ta’limiy jarayonni loyihalashtiruvchi va o‘quvchining mustaqil harakatlari uchun sharoit yaratuvchi pedagogga aylanadi.

Ta’limiy agentlikning rivojlanishida tanlov va erkinlik muhim bo‘lsa-da, ularni pedagogik maqsad va aniq chegaralarsiz tashkil etish kutilgan natijani bermasligi mumkin. O‘quvchi nimani tanlash, nima uchun tanlash va o‘z tanlovining oqibatlarini qanday baholashni bilishi kerak. Demak, agentlikni rivojlantirish “o‘quvchiga hamma narsani mustaqil bajarishga topshirish” emas, balki unga bosqichma-bosqich mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgatish jarayonidir.

Shuningdek, o‘quvchi agentligini rivojlantirishda baholash tizimining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Faqat yakuniy bahoga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchini natija ortidan quvishga undashi mumkin. Formativ baholash esa o‘quvchiga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va keyingi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan, baholashning rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish ta’limiy agentlikni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Amaliy pedagogik tavsiyalar. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish uchun dars jarayonida o‘quvchilarga kichik, ammo real tanlov imkoniyatlarini berish maqsadga muvofiq. Masalan, topshiriqni bajarish shaklini tanlash, muammoni hal qilishning bir necha variantidan foydalanish yoki taqdimot usulini mustaqil belgilash o‘quvchining ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi.

O‘quvchilarning shaxsiy maqsadlarini belgilash va haftalik yoki mavzuli ta’lim rejalarini tuzish amaliyotini joriy etish ham samarali hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi tayyor reja berishdan ko‘ra, o‘quvchiga reja tuzishda yo‘naltiruvchi savollar va mezonlarni taqdim etishi mumkin.

Dars yakunida qisqa refleksiv faoliyatni tashkil etish ham ta’limiy agentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlari, duch kelgan qiyinchiliklari va keyingi faoliyatida amalga oshirishi kerak bo‘lgan ishlar haqida qisqacha fikr yuritishi mumkin.

Bundan tashqari, loyiha va tadqiqot topshiriqlarini muntazam qo‘llash, elektron portfolio yuritish, o‘zini o‘zi baholash va tengdoshlar bahosidan foydalanish, o‘quvchilarning tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda xatolarni o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilish uchun ijobiy pedagogik muhit yaratish tavsiya etiladi.

Xulosa. O‘quvchi shaxsining ta’limiy agentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u o‘quvchining ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’limiy agentlik o‘quvchining mustaqilligi bilangina cheklanmay, uning motivatsiyasi, maqsad belgilashi, qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini boshqarishi, refleksiya qilishi va ta’lim natijalari uchun mas’uliyatni his etishini ham qamrab oladi [1, 2, 5, 7].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’limiy agentlikni rivojlantirishning samaradorligi o‘quvchiga real tanlov imkoniyatlarini berish, mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish, muammoli va loyiha asosidagi topshiriqlardan foydalanish, formativ baholashni rivojlantirish hamda refleksiv faoliyatni muntazam tashkil etish bilan bevosita bog‘liq. Bunda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchining o‘rniga qaror qabul qilish emas, balki uning mustaqil faoliyati uchun zarur pedagogik sharoitni yaratishdan iborat.

Shuningdek, ta’limiy agentlikning shakllanishida oila, ta’lim muassasasi va ijtimoiy muhitning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining fikrini hurmat qilish, uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va xatolarini rivojlanish imkoniyati sifatida baholash uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model ta’lim jarayonini o‘quvchining ehtiyojlari, imkoniyatlari va tashabbuslari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvdan samarali foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mas’uliyati va uzluksiz ta’lim olishga tayyorgarligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
2. Bandura A. Toward a Psychology of Human Agency // Perspectives on Psychological Science. — 2006. — Vol. 1, No. 2. — P. 164–180.
3. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. — New York: Plenum, 1985.
4. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. — 2000. — Vol. 55, No. 1. — P. 68–78.
5. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.
6. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing. — Paris, 2018.
7. OECD. Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. — Paris: OECD, 2019.
8. Biesta G., Priestley M., Robinson S. The Role of Beliefs in Teacher Agency // Teachers and Teaching: Theory and Practice. — 2015. — Vol. 21, No. 6. — P. 624–640.
9. Emirbayer M., Mische A. What Is Agency? // American Journal of Sociology. — 1998. — Vol. 103, No. 4. — P. 962–1023.
10. Zimmerman B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // Handbook of Self-Regulation / Ed. by M. Boekaerts, P. R. Pintrich, M. Zeidner. — San Diego: Academic Press, 2000. — P. 13–39.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 37.07:373.2



Begimova Farangiza Ismoil qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA KADRLARNI INTERAKTIV BOSHQARISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida kadrlarni interaktiv boshqarishning zamonaviy pedagogik va psixologik mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda interaktiv boshqaruvning pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, motivatsiya, hamkorlik pedagogikasi, kommunikativ boshqaruv va innovatsion texnologiyalarning kadrlar boshqaruvidagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida interaktiv boshqaruv tizimini rivojlantirish pedagogik samaradorlikni oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, interaktiv boshqaruv, pedagogik mexanizm, psixologik yondashuv, motivatsiya, pedagog kompetentligi, innovatsion boshqaruv.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНТЕРАКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КАДРАМИ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье научно проанализированы современные педагогические и психологические механизмы интерактивного управления кадрами в системе дошкольного образования. В исследовании раскрывается роль интерактивного управления в повышении эффективности педагогического процесса, развитии профессиональной компетентности педагогов и создании здоровой психологической атмосферы в коллективе. Также раскрывается значение мотивации, педагогики сотрудничества, коммуникативного управления и инновационных технологий в управлении кадрами. Результаты исследования показывают, что развитие системы

интерактивного управления в организациях дошкольного образования способствует повышению педагогической эффективности.

Ключевые слова: дошкольное образование, интерактивное управление, педагогический механизм, психологический подход, мотивация, профессиональная компетентность педагога, инновационное управление.

MODERN PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF INTERACTIVE PERSONNEL MANAGEMENT IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Abstract. This article provides a scientific analysis of modern pedagogical and psychological mechanisms of interactive personnel management in the preschool education system. The study highlights the role of interactive management in improving the effectiveness of the pedagogical process, developing teachers' professional competencies, and creating a healthy psychological environment within the team. The significance of motivation, collaborative pedagogy, communicative management, and innovative technologies in personnel management is also examined. The results of the study demonstrate that the development of an interactive management system in preschool education organizations contributes to increasing pedagogical effectiveness.

Keywords: preschool education, interactive management, pedagogical mechanism, psychological approach, motivation, teachers' professional competence, innovative management.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmuni va boshqaruv mexanizmlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sifatini ta'minlashda moddiy-texnik baza, ilg'or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim metodlari bilan bir qatorda, inson resurslarini samarali boshqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati, ijodiy imkoniyatlari, tashabbuskorligi va kasbiy motivatsiyasi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni hamda natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlarni boshqarishning samarali, moslashuvchan va inson omiliga yo'naltirilgan mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, jismoniy, ma'naviy-axloqiy va psixologik rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaga ta'lim va tarbiya beruvchi pedagogning kasbiy kompetensiyasi, muloqot madaniyati, psixologik tayyorgarligi hamda pedagogik mahorati alohida ahamiyatga ega. Pedagogning bunday sifatlarini rivojlantirish esa faqatgina malaka oshirish yoki metodik ta'minot bilan cheklanib

qolmay, balki uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, mehnatini rag‘batlantirish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va jamoada qulay psixologik muhit yaratishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlarni boshqarishga yangicha yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi yillarda boshqaruv amaliyotida an’anaviy, asosan ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan yondashuvlardan xodimlarning fikri, tashabbusi va kasbiy ehtiyojlarini inobatga oladigan interaktiv boshqaruv tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Interaktiv boshqaruv rahbar va pedagog o‘rtasidagi bir tomonlama munosabatlarni emas, balki o‘zaro hamkorlik, fikr almashish, jamoaviy muhokama va birgalikda qaror qabul qilish jarayonlarini nazarda tutadi. Bunday boshqaruvda pedagog nafaqat boshqaruv qarorlarining ijrochisi, balki ta’lim tashkilotining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shuvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Natijada xodimlarning boshqaruv jarayonidagi ishtiroki kuchayib, ularda tashkilot faoliyatiga nisbatan mas’uliyat va daxldorlik hissi shakllanadi.

Interaktiv boshqaruvning samaradorligi, avvalo, pedagogik va psixologik mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Pedagogik jihatdan mazkur yondashuv hamkorlik pedagogikasi, kasbiy rivojlanish, tajriba almashish, metodik qo‘llab-quvvatlash va jamoaviy faoliyatni tashkil etish orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik nuqtayi nazardan esa xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini o‘rganish, motivatsiyasini oshirish, o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish hamda sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash muhim hisoblanadi. Mazkur mexanizmlarning birgalikda qo‘llanilishi pedagoglarning kasbiy faolligini oshirish, ijodiy yondashuvini rag‘batlantirish va jamoada samarali hamkorlikni qaror toptirish imkonini beradi.

Kadrlarni interaktiv boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetensiyasi ham alohida o‘rin tutadi. Rahbar pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini to‘g‘ri aniqlashi, ularning faoliyatini xolis baholashi, individual yondashuvni ta’minlashi va zarur hollarda pedagogik hamda psixologik ko‘mak ko‘rsatishi lozim. Bunda ochiq muloqot, qayta aloqa, rag‘batlantirish, maslahatlashuv, jamoaviy muhokama va nizolarni konstruktiv hal etish kabi boshqaruv vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagogning mehnat natijasini e’tirof etish va uning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash kasbiy motivatsiyaning barqarorligini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga kirib kelishi interaktiv boshqaruv imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Elektron muloqot vositalari, raqamli monitoring, onlayn muhokamalar, elektron hujjat almashinuvi va masofaviy hamkorlik shakllari rahbar hamda pedagoglar o‘rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirish bilan birga, boshqaruv jarayonining shaffofligi va tezkorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan

foydalanish bilan bir qatorda, ulardan pedagoglarning kasbiy va psixologik ehtiyojlariga mos ravishda foydalanish masalasi ham muhimdir.

Interaktiv boshqaruvning yana bir muhim jihati pedagoglarda kasbiy o‘sishga bo‘lgan ichki ehtiyojni shakllantirish bilan bog‘liq. Boshqaruv jarayonida pedagogning fikri tinglanishi, uning takliflari e’tiborga olinishi va kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratilishi xodimning o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Bunday sharoitda pedagog o‘zini faqat topshiriqlarni bajaruvchi xodim sifatida emas, balki ta’lim tashkilotining rivojlanish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi mutaxassis sifatida his qiladi. Bu esa o‘z navbatida tashabbuskorlik, mas’uliyat, ijodkorlik va kasbiy faollikning ortishiga olib keladi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kadrlarni boshqarish jarayonida turli psixologik omillarni hisobga olish zarur. Jamoada xodimlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar, rahbarning boshqaruv uslubi, pedagoglarning emotsional holati, kasbiy charchoq darajasi, mehnatga munosabati va o‘zaro ishonch kabi omillar boshqaruv samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy boshqaruv tizimi faqat tashkiliy vazifalarni hal etishga emas, balki xodimlarning psixologik farovonligini ta’minlashga ham yo‘naltirilishi lozim. Sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lgan jamoada pedagoglarning o‘zaro hamkorligi kuchayadi, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish imkoniyati ortadi va umumiy faoliyat samaradorligi oshadi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya, kasbiy ta’lim va ta’lim menejmentiga oid ilmiy-metodik manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv hamda refleksiv pedagogika tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rish, uning individual imkoniyatlarini hisobga olish va mustaqil kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, diagnostik suhbat, anketa so‘rovi, refleksiv topshiriqlarni tahlil qilish, pedagogik tajriba-sinov hamda o‘quv faoliyati natijalarini qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari davomida talabalar bilan refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etildi. Mashg‘ulotlarda refleksiv esse yozish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, “case-study”, interfaol munozaralar, “feedback” texnologiyasi, portfolio yuritish, o‘z-o‘zini baholash hamda trening metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar talabalarni o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilishga, pedagogik vaziyatlarga tanqidiy yondashishga, muammoli holatlarning sabablarini aniqlashga va o‘z ustida ishlashga yo‘naltirdi.

Refleksiv esse talabalarga o‘z pedagogik qarashlari, o‘quv faoliyati va kasbiy maqsadlarini yozma ravishda tahlil qilish imkonini berdi. “Case-study” metodi orqali esa real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlar muhokama qilinib, talabalarning muammoli vaziyatlarga turli nuqtayi nazardan yondashishi ta’minlandi. “Feedback” texnologiyasi yordamida talabalar o‘z faoliyati haqida tashqi fikr-mulohazalarni qabul qilish va ularni o‘z-o‘zini baholash jarayoni bilan uyg‘unlashtirishga o‘rgatildi. Portfolio esa talabaning ma’lum vaqt davomida erishgan natijalari, faoliyati, ijodiy ishlari va kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish vositasi sifatida qo‘llanildi.

Refleksiv pozitsiyani shakllantirishning asosiy mezonlari sifatida talabalarning o‘z-o‘zini baholash qobiliyati, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasi,

mustaqil qaror qabul qilish darajasi, tanqidiy va kreativ fikrlashi, o‘z faoliyati natijalarini baholay olishi hamda kasbiy rivojlanishga bo‘lgan motivatsiyasi belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasida refleksiv pozitsiya dinamik jarayon sifatida qaraldi. Ya’ni talabaning refleksiv rivojlanishi faqat bir martalik topshiriq natijasi bilan emas, balki o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, xulosalar chiqarishi va keyingi faoliyatini shu xulosalar asosida takomillashtirishi bilan baholandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari refleksiv yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik mashg‘ulotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov jarayonida refleksiv metodlardan foydalangan talabalar o‘zlarining o‘quv va pedagogik faoliyatini chuqurroq tahlil qila boshlagani, faoliyat natijalariga tanqidiy yondashgani hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirgani kuzatildi.

Refleksiv topshiriqlar talabalarning o‘z pedagogik faoliyatini baholashi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlashiga yordam berdi. Ayniqsa, refleksiv esse yozish jarayonida talabalar o‘zlarining pedagogik qarashlari, muvaffaqiyatlari, qiyinchiliklari va kelgusidagi kasbiy maqsadlarini tizimli ravishda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa o‘z-o‘zini anglash va kasbiy o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishiga xizmat qildi.

Portfolio yuritish ham refleksiv pozitsiyani shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Portfolio orqali talabalar o‘zlarining o‘quv va ijodiy faoliyatini muntazam kuzatish, erishilgan natijalarni baholash va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bunday faoliyat talabaning o‘z kasbiy rivojlanishiga nisbatan mas’uliyatini oshirishga yordam berdi.

Pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va muammoli topshiriqlardan foydalanish esa talabalarni pedagogik muammolarni mustaqil hal etishga o‘rgatdi. Turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida talabalar muammoning sabablarini aniqlash, bir nechta muqobil yechimlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashga harakat qildilar. Natijada pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, mustaqil qaror qabul qilish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari kengaydi.

Tadqiqot davomida refleksiv yondashuv talabalarning kasbiy motivatsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi. Talabalar o‘z kasbiy rivojlanishiga nisbatan mas’uliyat bilan yondasha boshladilar, o‘z bilim va ko‘nikmalaridagi bo‘shliqlarni aniqlashga hamda ularni to‘ldirishga ehtiyoj sezdilar. Bu holat refleksiv faoliyatning nafaqat kognitiv, balki motivatsion va shaxsiy rivojlanish jihatlariga ham ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Shuningdek, refleksiv faoliyatni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi aniqlandi. Elektron portfolio, onlayn fikr-mulohaza, raqamli kundalik va videodarslarni tahlil qilish kabi vositalar talabaning o‘z faoliyatini turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishiga yordam beradi. Bu esa refleksiyani muntazam va tizimli jarayonga aylantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini kuchaytirishga, kompetensiyaviy yondashuv amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, raqamli ta’lim texnologiyalarining keng joriy qilinishi esa refleksiv faoliyatni yangi formatlarda tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Muhokama. Refleksiv pozitsiya pedagogning kasbiy shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Zamonaviy pedagog faqat tayyor bilimlarni yetkazib beruvchi mutaxassis emas, balki o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi, pedagogik jarayonni takomillashtiruvchi, innovatsion yondashuvlarni izlab topuvchi va o‘z kasbiy rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi shaxs bo‘lishi zarur.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya pedagogning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Refleksiv faoliyat orqali pedagog o‘z tajribasini baholaydi, muvaffaqiyat va kamchiliklarini aniqlaydi, pedagogik xatolarning sabablarini tahlil qiladi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqadi. Shu sababli refleksiv yondashuv pedagogik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xorijiy tajribada ham refleksiv ta’lim va pedagogik faoliyatni tahlil qilishga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, Finlyandiya ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarning mustaqil tahliliy faoliyatiga va kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor beriladi. Singapur tajribasida dars jarayonlarini tahlil qilish, hamkasblar bilan fikr almashish va pedagogik faoliyat natijalarini qayta ko‘rib chiqish amaliyotlari qo‘llanadi. Yaponiya ta’lim tizimida keng tarqalgan “Lesson Study” texnologiyasi esa pedagoglarning darsni rejalashtirish, kuzatish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonlarini tizimli ravishda tashkil etishga imkon beradi. Ushbu tajribalar refleksiyaning individual faoliyat bilan bir qatorda jamoaviy kasbiy rivojlanish vositasi sifatida ham muhimligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini shakllantirishda o‘qituvchining o‘zi ham muhim subyekt hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasasidagi pedagog talabalarni faqat baholovchi emas, balki ularning refleksiv rivojlanishini tashkil etuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunda talabaga xatolarni jazolash obyekti sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qarash muhim ahamiyatga ega. Ochiq muloqot, konstruktiv fikr-mulohaza va o‘zaro hurmatga asoslangan ta’lim muhiti refleksiv pozitsiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, innovatsion yondashuvlarni kengaytirish hamda ta’lim sifatini xalqaro talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar refleksiv pedagogikani rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq ayrim pedagogik oliy ta’lim muassasalarida refleksiv metodlardan foydalanish hali yetarlicha tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Refleksiya ko‘pincha dars yakunidagi qisqa savol-javob yoki o‘z-

o‘zini baholash bilan chegaralanib qolishi mumkin. Vaholanki, samarali refleksiv ta’lim talabaning butun o‘quv va amaliy faoliyatini qamrab olishi lozim.

Shu sababli pedagogik ta’limda refleksiv texnologiyalarni maqsadli va tizimli ravishda joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik dasturlar ishlab chiqish, refleksiv faoliyatni baholash mezonlarini takomillashtirish va pedagoglarning bu boradagi metodik tayyorgarligini oshirish zarur. Ayniqsa, refleksiv faoliyatni amaliy pedagogik tajriba bilan bog‘lash bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, refleksiv pozitsiyani shakllantirishning samarali modeli uchta o‘zaro bog‘liq bosqichni qamrab olishi mumkin: faoliyatni anglash – faoliyatni tahlil qilish – faoliyatni takomillashtirish. Birinchi bosqichda talaba o‘z faoliyatini anglaydi, ikkinchi bosqichda uning natijalarini tahlil qiladi, uchinchi bosqichda esa tahlil natijalariga asoslangan holda keyingi faoliyatini takomillashtirish strategiyasini belgilaydi. Mazkur siklning muntazam takrorlanishi bo‘lajak o‘qituvchida barqaror refleksiv pozitsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv pozitsiyasini shakllantirish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Refleksiv yondashuv bo‘lajak pedagogning o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishi, pedagogik muammolarni mustaqil aniqlashi va hal etishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari refleksiv metodlardan tizimli foydalanish pedagogik ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, refleksiv esse, portfolio, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, “case-study”, muammoli ta’lim, interfaol munozaralar, “feedback” texnologiyasi va raqamli pedagogik vositalar bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vositalar sifatida namoyon bo‘ldi.

Refleksiv pozitsiyaning shakllanishi natijasida talabalarda o‘z-o‘zini baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va kreativ fikrlash, o‘z faoliyatining natijalariga mas’uliyat bilan yondashish kabi sifatlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Shu jihatdan refleksiya pedagogik ta’limning yakuniy bosqichida qo‘llaniladigan alohida metod emas, balki ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz pedagogik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Kelgusida pedagogik oliy ta’lim tizimida refleksiv ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv kompetentligini baholashning aniq mezon va indikatorlarini ishlab chiqish, elektron portfolio va raqamli refleksiya vositalaridan foydalanish hamda pedagoglarning refleksiv metodik kompetentligini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, refleksiv pozitsiyani shakllantirishning turli bosqichlarini o‘z ichiga olgan metodik modelni ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba-

sinov asosida chuqur o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning istiqbolli vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Avliyakulov N.X. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2021.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
6. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
7. Quronov M. Zamonaviy pedagogik kompetensiyalar. – Toshkent, 2022.
8. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
9. Dewey J. How We Think. – Boston: D.C. Heath and Company, 1933.
10. Rogers C.R. Freedom to Learn. – New York: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 378.147:37.013.42



Fayziyeva Umida Usmonovna,
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

BO‘LAJAK PEDAGOG MUTAXASSISLARNING DIDAKTIK KOMPETENSIYASINI MUSTAQIL TA’LIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagog mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta’lim asosida rivojlantirishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning kuchayishi, raqamli pedagogikaning rivojlanishi hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, axborotni tahlil qilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda didaktik kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion usullari, raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari hamda sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalarining samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: didaktik kompetensiya, mustaqil ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta’lim, pedagogik texnologiyalar, sun’iy intellekt, innovatsion metodlar, refleksiya, blended learning, pedagogik mahorat.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье подробно рассматриваются теоретические, методологические и практические аспекты развития дидактической компетентности будущих педагогических специалистов на основе самостоятельного обучения. Усиление компетентностного подхода в современной системе высшего образования, развитие цифровой педагогики и внедрение технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс

предъявляют новые требования к системе подготовки педагогических кадров. В связи с этим возрастает значение самостоятельного обучения, поскольку оно способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, творческого подхода, навыков анализа информации и рефлексивной деятельности. В исследовании проанализированы инновационные методы развития дидактической компетентности, возможности использования цифровых образовательных платформ, а также эффективность образовательных технологий на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: дидактическая компетентность, самостоятельное обучение, компетентностный подход, цифровое образование, педагогические технологии, искусственный интеллект, инновационные методы, рефлексия, blended learning, педагогическое мастерство.

WAYS TO IMPROVE THE DIDACTIC COMPETENCE OF FUTURE PEDAGOGICAL SPECIALISTS THROUGH SELF-DIRECTED LEARNING

Abstract. This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of developing the didactic competence of future pedagogical specialists through self-directed learning. The increasing emphasis on the competency-based approach in modern higher education, the development of digital pedagogy, and the integration of artificial intelligence technologies into the educational process are placing new demands on teacher education. In this context, the importance of self-directed learning is increasing, as it contributes to the development of students' independent thinking, creative approaches, information analysis skills, and reflective activity. The study analyzes innovative methods for developing didactic competence, the potential of digital educational platforms, and the effectiveness of educational technologies based on artificial intelligence.

Keywords: didactic competence, self-directed learning, competency-based approach, digital education, pedagogical technologies, artificial intelligence, innovative methods, reflection, blended learning, pedagogical mastery.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida kechayotgan globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagogik ta'lim mazmuni, shakli va metodlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy bilim berish modelidan kompetensiyaviy yondashuvga bosqichma-bosqich o'tish kuzatilmoqda. Mazkur jarayon pedagogdan nafaqat o'z faniga oid puxta nazariy bilimlarni egallashni, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish, ta'lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, innovatsion metodlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni pedagogik maqsadlar asosida tanlash va ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini samarali boshqarishni ham talab etmoqda. Shu jihatdan zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi mutaxassis sifatida emas, balki

ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi, boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda pedagogik ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lajak mutaxassislarni o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil eta oladigan, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladigan, maqbul metodik yechimlarni tanlaydigan va ta'lim natijalarini baholay oladigan kompetent pedagog sifatida tayyorlashdan iborat. Bunda didaktik kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi. Didaktik kompetensiya pedagogning ta'lim maqsadlarini belgilash, o‘quv mazmunini tanlash va tizimlashtirish, dars jarayonini loyihalash, samarali metod va vositalarni qo‘llash, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish hamda erishilgan natijalarni tahlil qilish qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Mazkur kompetensiyaning yetarli darajada shakllanganligi pedagogning kasbiy faoliyat samaradorligi va ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston ta'lim tizimida ham pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish va talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonining zamonaviylashuvi natijasida talabaning auditoriyadagi faoliyati bilan bir qatorda, uning mustaqil ravishda bilim izlash, o‘zlashtirish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli mustaqil ta'limni oddiy qo‘shimcha o‘quv faoliyati sifatida emas, balki bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida qarash zarur.

Mustaqil ta'lim talabaning o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishi, o‘quv materiallarini izlab topishi, ularni tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi, o‘z faoliyatini baholashi va kelgusidagi faoliyati uchun zarur xulosalar chiqarishiga imkon beradi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar uchun mustaqil ta'lim jarayoni nazariy bilimlarni amaliy-metodik faoliyat bilan bog‘lashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Talaba mustaqil ravishda dars ishlanmasi tuzishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, turli metodlarni taqqoslashi, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishi va o‘z metodik qarorlarini asoslay olishi orqali didaktik kompetensiyasini rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi mustaqil ta'limni tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Moodle, Google Classroom, Coursera va boshqa elektron ta'lim platformalari orqali o‘quv materiallarini taqdim etish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, natijalarni elektron shaklda topshirish, fikr-mulohaza olish va o‘zlashtirish jarayonini monitoring qilish imkoniyati kengaymoqda. Bundan tashqari, multimedia resurslari, elektron kutubxonalar, videodarslar, virtual seminarlar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish talabaning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim sohasida qo‘llanilishi ham mustaqil ta'lim imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari yordamida o‘quv materiallarini tizimlashtirish, topshiriqlar

yaratish, savollar ishlab chiqish, matnlarni tahlil qilish, individual o‘quv vazifalarini shakllantirish va metodik g‘oyalarni ishlab chiqishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq mazkur vositalardan foydalanish talabaning mustaqil fikrlashini almashtirmasligi, aksincha, uning izlanishi, tahliliy fikrlashi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi lozim. Shu sababli sun’iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, tanqidiy fikrlash, axborotning ishonchliligini tekshirish va raqamli etika tamoyillariga amal qilish muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagog mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta’lim asosida rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogik ta’limning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak pedagoglarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta’lim asosida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, samarali metod va vositalarni tahlil qilish hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot pedagogika, didaktika, kompetensiyaviy yondashuv va mustaqil ta’lim nazariyalariga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot metodologiyasini kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarning didaktik kompetensiyasini nafaqat bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi, balki amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan yaxlit kasbiy sifat sifatida o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma hamda tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning mustaqil ta’lim faoliyati, topshiriqlarni bajarish jarayoni, metodik ishlanmalar tayyorlashi va pedagogik vaziyatlarga munosabati tahlil qilindi.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish imkoniyatlari ham o‘rganildi. Xususan, flipped classroom, blended learning, project-based learning, peer learning, case-study va mikroo‘qitish metodlari bo‘lajak pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beruvchi vositalar sifatida tahlil qilindi. Mazkur metodlar talabalarning mustaqil izlanishi, o‘z fikrini asoslash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va metodik qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqotda raqamli ta’lim platformalari, elektron portfolio, virtual seminarlar, elektron topshiriqlar va multimedia resurslaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlariga ham e’tibor qaratildi. Sun’iy intellekt vositalarining esa dars ishlanmalari va test topshiriqlarini ishlab chiqish, o‘quv materiallarini tahlil qilish, individual topshiriqlar yaratish hamda metodik g‘oyalarni shakllantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi. Bunda sun’iy intellektdan foydalanish talabaning tayyor javobni qabul qilishi emas, balki mustaqil fikrlashi va o‘z pedagogik qarorlarini asoslashiga yordam beruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari mustaqil ta'lim asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni bo‘lajak pedagog mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini rivojlantirish uchun sezilarli imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mustaqil faoliyat jarayonida talabalar o‘quv materiallarini izlash va tahlil qilish, pedagogik muammolarni aniqlash, turli metodik yondashuvlarni taqqoslash hamda o‘z faoliyati uchun maqbul pedagogik yechimlarni tanlashga ko‘proq jalb etildi. Bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini kengaytirdi.

Tadqiqot davomida didaktik kompetensiyaning rivojlanishi, avvalo, ta'limni rejalashtirish va loyihalash, o‘quv mazmunini tanlash, pedagogik metod va vositalardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va o‘quv natijalarini baholash bilan bog‘liq ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi kuzatildi. Mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar dars maqsadini belgilash, unga mos topshiriqlar ishlab chiqish, interfaol metodlarni tanlash va kutilayotgan natijalarni aniqlashga yo‘naltirildi. Natijada ularda pedagogik jarayonni yaxlit holda ko‘ra olish va uning alohida elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash ko‘nikmalari rivojlandi.

Raqamli platformalar asosida tashkil etilgan mustaqil ta'lim mashg‘ulotlari talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligini oshirishga xizmat qildi. Elektron resurslar orqali talabalar o‘quv materiallarini o‘zlariga qulay vaqtda o‘zlashtirish, topshiriqlarni mustaqil bajarish, natijalarni elektron shaklda taqdim etish hamda o‘z faoliyati yuzasidan fikr-mulohaza olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Elektron portfolio yuritish esa talabalarning metodik ishlanmalarini tizimli ravishda jamlash, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish va o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish uchun qulay vosita bo‘lib xizmat qildi.

Loyiha asosida o‘qitish, case-study va mikroo‘qitish kabi metodlardan foydalanish ham didaktik kompetensiyaning amaliy jihatlarini rivojlantirishga yordam berdi. Xususan, mikroo‘qitish jarayonida talabalar qisqa dars fragmentlarini mustaqil ishlab chiqish va taqdim etish, o‘z chiqishlarini tahlil qilish hamda tengdoshlarining fikr-mulohazalari asosida metodik yondashuvlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Case-study metodi esa real yoki shartli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoning sabablarini aniqlash va unga mos yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirdi.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ham mustaqil ta'lim jarayonining yangi imkoniyatlarini ochib berdi. Talabalar AI vositalari yordamida dars ishlanmalari uchun dastlabki g‘oyalarni shakllantirish, test topshiriqlarini ishlab chiqish, mavzuga oid savollar yaratish va o‘quv materiallarini tizimlashtirish kabi faoliyatlarni amalga oshirishlari mumkinligi aniqlandi. Bunda tayyor materialni bevosita qabul qilishdan ko‘ra, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish, tahlil qilish, pedagogik maqsadga moslashtirish va qayta ishlab chiqish talabaning didaktik kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhimroq ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning refleksiv faoliyatiga e’tibor qaratish ularning o‘z pedagogik imkoniyatlarini anglashiga yordam berdi. Bajarilgan topshiriqlarni tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash va kelgusidagi faoliyat uchun xulosa chiqarish talabaning kasbiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan mustaqil ta’lim nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki bo‘lajak pedagogning o‘z faoliyatini boshqarish va takomillashtirish qobiliyatini shakllantiruvchi jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokama. Zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogning kasbiy roli va unga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada o‘zgarmoqda. O‘qituvchi endilikda tayyor bilimlarni yetkazuvchi shaxs bo‘lish bilan cheklanib qolmay, ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanishini tashkil etuvchi, ularning bilish faoliyatini yo‘naltiruvchi va ta’lim jarayonini loyihalovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli didaktik kompetensiyani shakllantirish pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralishi tabiiydir.

Tadqiqot natijalari mustaqil ta’limning didaktik kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari uning to‘g‘ri tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqil ta’lim talaba zimmasiga shunchaki qo‘shimcha topshiriqlar yuklash bilan cheklanmasligi kerak. U aniq maqsad, tushunarli topshiriq, zarur metodik ko‘rsatma, tegishli axborot resurslari va natijalarni baholash mezonlari bilan ta’minlangandagina samarali natija beradi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar uchun mustaqil topshiriqlar bevosita kelgusidagi kasbiy faoliyat bilan bog‘langan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonni yanada qulay va moslashuvchan tashkil etish imkonini bermoqda. Elektron ta’lim platformalari orqali topshiriqlarni individual ravishda berish, ta’lim materiallarini turli formatlarda taqdim etish, o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va tezkor fikr-mulohaza berish mumkin. Shu bilan birga, raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori ta’lim natijasini kafolatlamaydi. Ularning samaradorligi pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi, o‘quv mazmuni bilan uyg‘unlashtirilishi va talabaning faol ishtirokini ta’minlashi bilan belgilanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari esa mustaqil ta’limni individuallashtirish va metodik jihatdan boyitish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratmoqda. ChatGPT, Gemini va Copilot kabi vositalar yordamida o‘quv materiallari bo‘yicha savollar shakllantirish, topshiriqlar variantlarini ishlab chiqish, dars g‘oyalarini izlash va metodik materiallarni dastlabki qayta ishlash mumkin. Biroq bunday vositalardan foydalanishda talabaning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi ustuvor bo‘lib qolishi kerak. Sun’iy intellekt tomonidan berilgan ma’lumotlar har doim ham to‘liq yoki xatosiz bo‘lmasligi sababli, ularni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli manbalar bilan solishtirish va pedagogik nuqtayi nazardan baholash zarur.

Shu bilan birga, AI texnologiyalaridan foydalanishda akademik halollik, mualliflik huquqi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va raqamli etika

masalalariga ham e'tibor qaratish lozim. Talaba sun'iy intellektdan tayyor javob olish vositasi sifatida emas, balki o'z bilimini boyitish, muammoni chuqurroq o'rganish va pedagogik g'oyalarini takomillashtirish vositasi sifatida foydalanishi maqsadga muvofiq.

Umuman, mustaqil ta'lim, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini o'zaro uyg'unlashtirish bo'lajak pedagoglarning didaktik kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit yaratadi. Bunda asosiy e'tibor texnologiyalarning o'ziga emas, balki ularning ta'lim maqsadi, mazmuni va kutilayotgan natijalar bilan uyg'unligiga qaratilishi lozim.

Xulosa. Bo'lajak pedagog mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta'lim asosida rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mustaqil ta'lim talabalarga nazariy bilimlarni mustaqil ravishda egallash bilan bir qatorda, ularni pedagogik faoliyatda qo'llash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, metodik qarorlar qabul qilish va o'z faoliyatini baholash imkonini beradi. Shu jihatdan u bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishini ta'minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari mustaqil ta'limni raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o'qitish, case-study, mikroo'qitish, elektron portfolio va boshqa zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish didaktik kompetensiyaning rivojlanishiga ijobiy sharoit yaratishini ko'rsatdi. Ayniqsa, talabaning mustaqil izlanishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi va o'z metodik ishlanmalarini yaratishi uning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ham mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq undan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlash, akademik halollik, axborot xavfsizligi va raqamli etika tamoyillariga rioya qilish zarur. Sun'iy intellekt talabaning mustaqil fikrlashini almashtirmasdan, uning izlanishi va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashi lozim.

Shunday qilib, bo'lajak pedagoglarning didaktik kompetensiyasini takomillashtirishda mustaqil ta'limni maqsadli tashkil etish, raqamli ta'lim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida oliy ta'limda mustaqil ta'limning metodik ta'minotini takomillashtirish, individual ta'lim trayektoriyalarini rivojlantirish, sun'iy intellekt asosidagi pedagogik vositalardan samarali foydalanish hamda bo'lajak o'qituvchilarning didaktik kompetensiyasini baholash mezonlarini yanada takomillashtirish ushbu yo'nalishdagi muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2023.

4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

5. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

6. Xutorskoy A.V. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.

7. Klarin M.V. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Арена, 1994.

8. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2. – No. 1. – P. 3–10.

9. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108. – No. 6. – P. 1017–1054.

10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK 37.011.3-051:159.9



Razzoqova Gulshoda Baris qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

PEDAGOG KASBIY DEFORMATSIYALARINING OLDINI OLISH VA KORREKSIYALASH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagog faoliyatida uchraydigan kasbiy deformatsiyalar, ularning shakllanish omillari, pedagogik faoliyatga ta’siri hamda ularning oldini olish va korreksiyalash mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot davomida pedagogik faoliyatda emotsional kuyish, kommunikativ deformatsiya, kasbiy stereotiplashuv va avtoritarlik kabi salbiy holatlarning yuzaga kelish sabablari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, psixologik treninglardan foydalanish va sog‘lom pedagogik muhitni shakllantirish kasbiy deformatsiyalarni oldini olishning muhim omillari sifatida asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: kasbiy deformatsiya, pedagogik faoliyat, emotsional kuyish, pedagogik korreksiya, refleksiya, pedagogik stress, kommunikativ kompetensiya, kasbiy rivojlanish, pedagog shaxsi.

ПУТИ ПРОФИЛАКТИКИ И КОРРЕКЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДЕФОРМАЦИЙ ПЕДАГОГА

Аннотация. В статье научно обоснованы профессиональные деформации, возникающие в деятельности педагога, факторы их формирования, влияние на педагогическую деятельность, а также механизмы их профилактики и коррекции. В ходе исследования проанализированы причины возникновения таких негативных состояний, как эмоциональное выгорание, коммуникативная деформация, профессиональная стереотипизация и авторитарность в педагогической деятельности. Также обосновано, что развитие рефлексивной компетентности педагогов, внедрение инновационных педагогических технологий, использование психологических

тренингов и формирование здоровой педагогической среды являются важными факторами профилактики профессиональных деформаций.

Ключевые слова: профессиональная деформация, педагогическая деятельность, эмоциональное выгорание, педагогическая коррекция, рефлексия, педагогический стресс, коммуникативная компетентность, профессиональное развитие, личность педагога.

WAYS OF PREVENTING AND CORRECTING PROFESSIONAL DEFORMATIONS IN TEACHERS

Abstract. This article scientifically examines professional deformations occurring in teachers' professional activities, the factors contributing to their development, their impact on pedagogical practice, and mechanisms for their prevention and correction. The study analyzes the causes of such negative phenomena as emotional burnout, communicative deformation, professional stereotyping, and authoritarianism in teaching activities. It also substantiates that developing teachers' reflective competence, implementing innovative pedagogical technologies, using psychological training, and creating a healthy pedagogical environment are important factors in preventing professional deformations.

Keywords: professional deformation, pedagogical activity, emotional burnout, pedagogical correction, reflection, occupational stress, communicative competence, professional development, teacher personality.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimining mazmuni, tashkil etish shakllari va pedagog kasbiga qo‘yiladigan talablar jadal sur'atlarda yangilanib bormoqda. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, innovatsion pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi, ta'lim oluvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarining o‘zgarishi pedagog zimmasiga nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki rivojlangan kommunikativ, refleksiv va emotsional kompetensiyalarni ham yuklamoqda. Zamonaviy pedagog o‘qituvchi sifatida bilim berish bilan bir qatorda tarbiyachi, maslahatchi, kommunikator, tashkilotchi va innovator vazifalarini ham bajaradi. Mazkur kasbiy vazifalarning ko‘pligi pedagogik faoliyatni yuqori darajadagi psixologik va emotsional zo‘riqish bilan kechadigan faoliyat turlaridan biriga aylantiradi.

Pedagogning uzoq vaqt davomida yuqori mas'uliyat, doimiy muloqot, vaqt taqchilligi, ish yuklamasining ortishi va turli pedagogik muammolar sharoitida faoliyat yuritishi uning kasbiy va shaxsiy xususiyatlarida muayyan salbiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar ilmiy adabiyotlarda kasbiy deformatsiya tushunchasi bilan izohlanadi. Kasbiy deformatsiya — kasbiy faoliyatning uzoq muddatli va tizimli ta'siri natijasida shaxsning xulq-atvori, kasbiy qarashlari, muloqot uslubi, emotsional munosabatlari

va faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasida yuzaga keladigan salbiy o‘zgarishlar majmuasidir.

Pedagogik faoliyatda kasbiy deformatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘qituvchining kasbiy holati nafaqat uning shaxsiy faoliyat samaradorligiga, balki ta’lim oluvchilar bilan munosabatlarga, sinf yoki guruhdagi psixologik muhitga, ta’lim motivatsiyasiga va ta’lim sifatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogning emotsional jihatdan sovuqlashuvi, o‘quvchilarga nisbatan befarq munosabati, haddan tashqari avtoritar boshqaruv uslubiga o‘tishi, kommunikativ keskinlikning kuchayishi yoki pedagogik faoliyatda stereotiplarning ustunlik qilishi ta’lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Kasbiy deformatsiyaning shakllanishi, odatda, birdaniga sodir bo‘lmaydi. U uzoq davom etuvchi kasbiy stress, emotsional zo‘riqish, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, kasbiy rivojlanishning sustlashuvi hamda pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqishning pasayishi natijasida bosqichma-bosqich shakllanadi. Shu sababli deformatsiyani faqat uning yaqqol namoyon bo‘lgan bosqichida korreksiyalash emas, balki uning dastlabki belgilarini aniqlash va profilaktik choralarni o‘z vaqtida tashkil etish muhimdir.

Pedagog kasbiy deformatsiyalarining eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlari qatoriga emotsional kuyish, emotsional sovuqlashuv, kommunikativ zo‘riqish va agressivlik, avtoritarlik, kasbiy stereotiplashuv, ijodiy faollikning susayishi hamda kasbiy motivatsiyaning pasayishini kiritish mumkin. Ushbu holatlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ayrim hollarda bir deformatsiya ikkinchisining shakllanishiga zamin yaratadi. Masalan, uzoq davom etgan emotsional zo‘riqish pedagogning o‘quvchilar bilan muloqotida keskinlikni kuchaytirishi, bu esa avtoritar munosabat yoki kommunikativ agressiyaning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning mehnat faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va pedagogik faoliyat sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi, uzluksiz malaka oshirishi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallashi ta’lim sifatini ta’minlashning muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan pedagogning kasbiy barqarorligini ta’minlash, kasbiy deformatsiyalarning oldini olish va zarur hollarda ularni korreksiyalash masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi pedagoglarda kasbiy deformatsiyalarning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning pedagogik faoliyatga ta’sirini tahlil qilish hamda kasbiy deformatsiyalarning oldini olish va korreksiyalashning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi: kasbiy deformatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish; pedagogik faoliyatda uchraydigan asosiy deformatsiya shakllarini tavsiflash; ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarni aniqlash;

profilaktik va korreksion mexanizmlarni tizimlashtirish hamda pedagogning kasbiy barqarorligini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, refleksiv-faoliyatli va akmeologik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar pedagogning kasbiy faoliyatini faqat tashqi natijalar asosida emas, balki uning shaxsiy, emotsional, kommunikativ va refleksiv imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogika, pedagogik psixologiya, kasbiy psixologiya va ta’lim menejmentiga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik jihatdan esa pedagogik kuzatish, suhbat, umumlashtirish hamda psixologik diagnostika elementlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Kasbiy deformatsiyalarning shakllanish omillarini aniqlashda ularni uch asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq deb topildi: ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar. Ijtimoiy omillarga ortiqcha ish yuklamasi, kasbiy mas’uliyatning yuqoriligi, ijtimoiy talablarning ortishi va ish sharoitlari bilan bog‘liq bosimlar kiradi. Psixologik omillar stressga chidamlilik, emotsiyalarni boshqarish, o‘z-o‘zini baholash, refleksivlik va kasbiy motivatsiya bilan bog‘liq. Pedagogik omillar esa an’anaviy faoliyat usullariga haddan tashqari bog‘lanish, innovatsion metodlardan foydalanishning cheklanganligi, kasbiy rivojlanishning uzluksiz tashkil etilmasligi va pedagogik muloqotdagi qiyinchiliklarni qamrab oladi.

Tadqiqot metodologiyasida kasbiy deformatsiyani faqat individual psixologik muammo sifatida emas, balki pedagog–ta’lim oluvchi, pedagog–hamkasb va pedagog–ta’lim muassasasi o‘rtasidagi munosabatlar tizimida yuzaga keladigan kompleks hodisa sifatida baholashga ustuvor ahamiyat berildi.

Natijalar. Nazariy tahlillar natijasida pedagog kasbiy deformatsiyalarining bir nechta asosiy shakllari ajratib ko‘rsatildi. Ular orasida emotsional kuyish, kommunikativ deformatsiya, avtoritarlik, kasbiy stereotiplashuv va ijodiy faollikning pasayishi alohida o‘rin egallaydi.

Emotsional kuyish pedagogik faoliyatda uzoq davom etuvchi emotsional zo‘riqishning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning dastlabki belgilariga doimiy charchoq, ishga qiziqishning pasayishi, kasbiy vazifalarni bajarishga nisbatan befarqlik va emotsional holdan toyish kiradi. Mazkur holat chuqurlashgani sari pedagog o‘quvchilar bilan muloqotda emotsional masofani kuchaytirishi, pedagogik vaziyatlarga nisbatan befarq munosabatda bo‘lishi va o‘z kasbiy faoliyatining natijalariga nisbatan qiziqishini yo‘qotishi mumkin.

Kommunikativ deformatsiya pedagogning muloqot uslubida salbiy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Bunda keskin ohang, sabrsizlik, tinglash qobiliyatining pasayishi, nizoli vaziyatlarga haddan tashqari keskin munosabat bildirish va pedagogik muloqotda konstruktivlikning kamayishi

kuzatilishi mumkin. Mazkur deformatsiya ta'lim oluvchilar bilan ishonchli munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiladi.

Avtoritarlik pedagogning boshqaruv faoliyatida buyruqbozlik, qat'iy nazorat va bir tomonlama qaror qabul qilishning ustunligi bilan namoyon bo'ladi. Pedagogik jarayonda intizom va talabchanlik zarur bo'lsa-da, ularning haddan tashqari kuchayishi ta'lim oluvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini cheklashi mumkin. Shu sababli pedagogik talabchanlik bilan hamkorlikka asoslangan munosabat o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir.

Kasbiy stereotiplashuv pedagogning faoliyatida ilgari qo'llanilgan usul va yondashuvlarni vaziyatdan qat'i nazar takrorlashga moyilligi bilan tavsiflanadi. Bu holat pedagogning yangi metodlarni o'zlashtirishga qiziqishini kamaytirib, ijodiy izlanish va innovatsion faoliyatning susayishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy ta'lim sharoitida mazkur deformatsiyaning oldini olish uchun pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar kasbiy deformatsiyalar shakllanishida bir nechta omillarning o'zaro ta'siri mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, ortiqcha ish yuklamasi, vaqt taqchilligi, doimiy kommunikativ faoliyat, pedagogik konfliktlar, kasbiy faoliyatning bir xilligi va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarining cheklanganligi deformatsiya xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, pedagogning refleksiv kompetensiyasi, emotsional o'zini boshqarish qobiliyati, kasbiy motivatsiyasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi deformatsiyalarga qarshi himoya omillari sifatida namoyon bo'ladi.

Kasbiy deformatsiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri bir necha yo'nalishda kuzatiladi. Birinchidan, pedagogning ta'lim jarayonini tashkil etish sifati pasayishi mumkin. Ikkinchidan, ta'lim oluvchilar bilan kommunikativ munosabatlarda keskinlik yuzaga keladi. Uchinchidan, pedagogning innovatsion faoliyatga qiziqishi va kasbiy rivojlanishga bo'lgan motivatsiyasi susayadi. To'rtinchidan, ta'lim muassasasidagi umumiy psixologik muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ortadi.

Shu asosda kasbiy deformatsiyalarning oldini olishning quyidagi o'zaro bog'liq yo'nalishlari aniqlandi: pedagogik refleksiyani rivojlantirish, psixologik profilaktika, kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va sog'lom pedagogik muhitni shakllantirish.

Pedagogik refleksiya kasbiy deformatsiyalarning dastlabki belgilarini aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagog o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish orqali kasbiy xatti-harakatlari, muloqot uslubi, emotsional holati va pedagogik qarorlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Refleksiv kundalik, o'z-o'zini baholash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va kasbiy faoliyat natijalarini muntazam ko'rib chiqish refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Psixologik profilaktika doirasida stressni boshqarish, emotsional o'zini nazorat qilish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va psixologik bo'shashish

usullariga oid treninglarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday mashg‘ulotlar pedagogning stressli vaziyatlarga konstruktiv munosabat bildirish, emotsional zo‘riqishni kamaytirish va nizolarni samarali boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashi mumkin.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham kasbiy deformatsiyalarning oldini olishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish va raqamli pedagogik vositalar pedagogning faoliyatini mazmunan boyitadi. Bunday yondashuvlar kasbiy bir xillikni kamaytirib, pedagogning ijodiy izlanishi va yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqishiga imkon yaratadi.

Muhokama. Olingan nazariy natijalar pedagog kasbiy deformatsiyasini faqat individual psixologik holat sifatida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Mazkur hodisa pedagogning kasbiy faoliyati, ish sharoiti, shaxsiy psixologik xususiyatlari, ta’lim muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhit va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli deformatsiyalarni korreksiyalash ham faqat pedagogning individual sa’y-harakatlari bilan cheklanmasdan, ta’lim muassasasi darajasidagi tashkiliy-pedagogik choralarni ham qamrab olishi lozim.

Kasbiy deformatsiyalarning oldini olishda eng avvalo profilaktik yondashuvga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq. Chunki deformatsiya chuqurlashgandan keyin uni bartaraf etish ko‘proq vaqt va psixologik resurslarni talab qiladi. Shu jihatdan pedagogning kasbiy faoliyatini muntazam monitoring qilish, psixologik holatini baholash, kasbiy qiyinchiliklarini aniqlash va individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Pedagogning kasbiy barqarorligini rivojlantirishda mentoring va kouching texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ish faoliyatini endigina boshlagan pedagoglar uchun tajribali mutaxassisning metodik va psixologik ko‘magi kasbiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Tajriba almashish, ochiq darslar, metodik birlashmalar faoliyati va hamkasblar bilan hamkorlik pedagogning kasbiy yolg‘izlanib qolishining oldini oladi.

Ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish kasbiy deformatsiyalarning oldini olishning institutsional omili sifatida qaralishi lozim. Rahbariyat va pedagoglar o‘rtasidagi ochiq muloqot, o‘zaro hurmat, adolatli mehnat taqsimoti, kasbiy yutuqlarni e’tirof etish va pedagoglarning fikrini inobatga olish ishdagi emotsional zo‘riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda kasbiy talabchanlik va insoniy munosabatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir.

Kasbiy deformatsiyalar shakllangan hollarda esa korreksion yondashuvdan foydalanish zarur. Korreksiya jarayoni deformatsiyaning turi va darajasiga qarab individual yoki guruhiy shaklda tashkil etilishi mumkin. Individual psixologik maslahat, refleksiv suhbat, stressni boshqarish mashg‘ulotlari, kommunikativ treninglar va kasbiy faoliyatni qayta tashkil etishga qaratilgan metodik yordam bunday holatlarda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Korreksion ishlarning muhim shartlaridan biri pedagogning muammoni anglashidir. Pedagog o‘zidagi emotsional zo‘riqish, kommunikativ qiyinchilik yoki kasbiy stereotiplarni anglab yetgan taqdirdagina ularni o‘zgartirishga nisbatan ichki motivatsiya shakllanadi. Shu bois korreksion jarayonda tanqid qilishdan ko‘ra, pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va muqobil xatti-harakatlarni mustaqil ravishda ishlab chiqishiga imkon beruvchi refleksiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kasbiy barqarorlikni rivojlantirishning yana bir muhim yo‘nalishi vaqtni samarali boshqarish va ish yuklamasini oqilona rejalashtirishdir. Pedagogning barcha vazifalarni bir vaqtning o‘zida bajarishga intilishi, dam olish va tiklanish vaqtining yetarli bo‘lmasligi emotsional zo‘riqishni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli ustuvor vazifalarni belgilash, ish va dam olish vaqtini muvozanatlash, vazifalarni oqilona taqsimlash va ortiqcha yuklamalarni kamaytirishga intilish kasbiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, kasbiy rivojlanish pedagogning deformatsiyalarga qarshi psixologik resurslarini kuchaytiruvchi omillardan biridir. Malaka oshirish kurslari, ilmiy-metodik seminarlar, kasbiy hamjamiyatlarda ishtirok etish, tajriba almashish va yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish pedagogning kasbiy qiziqishini saqlab qolishiga yordam beradi. Uzluksiz rivojlanish pedagogik faoliyatning bir xilligini kamaytirib, ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim muhitining kengayishi pedagog faoliyatiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi psixologik yuklamalarni ham olib kirayotganini hisobga olish zarur. Doimiy onlayn aloqa, elektron hujjatlar, raqamli nazorat va axborot oqimining ko‘pligi pedagogning ish va shaxsiy vaqt chegaralarini qisqartirishi mumkin. Shu sababli raqamli vositalardan foydalanishda ham vaqtni boshqarish, raqamli gigiyena va kasbiy chegaralarni saqlash tamoyillariga amal qilish muhimdir.

Umuman olganda, kasbiy deformatsiyalarning oldini olish va korreksiyalash jarayoni individual, pedagogik va tashkiliy darajalarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Faqat pedagogning shaxsiy psixologik tayyorgarligini oshirish bilan cheklanib qolmasdan, uning faoliyat yuritayotgan muhitini ham takomillashtirish zarur. Ana shunday kompleks yondashuv pedagogning kasbiy barqarorligini ta’minlash va ta’lim jarayonining sifatini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari pedagog kasbiy deformatsiyalari murakkab psixologik-pedagogik hodisa bo‘lib, ularning shakllanishida emotsional zo‘riqish, ortiqcha ish yuklamasi, kommunikativ qiyinchiliklar, kasbiy stereotiplashuv, innovatsion faoliyatning sustligi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi muhim omil bo‘lishini ko‘rsatdi. Emotsional kuyish, kommunikativ deformatsiya, avtoritarlik va kasbiy stereotiplashuv pedagogik faoliyat samaradorligiga, ta’lim oluvchilar bilan munosabatlarga va ta’lim muhitining psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Kasbiy deformatsiyalarning oldini olishda pedagogik refleksiyani rivojlantirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mentoring va kasbiy hamkorlikni kuchaytirish hamda ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Deformatsiya shakllangan holatlarda esa individual psixologik maslahat, refleksiv yondashuv, kommunikativ treninglar va kasbiy qo‘llab-quvvatlash texnologiyalaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu asosda pedagoglarning kasbiy barqarorligini ta’minlash uchun ta’lim muassasalarida muntazam psixologik-pedagogik monitoringni yo‘lga qo‘yish, kasbiy deformatsiyaning dastlabki belgilarini aniqlash, pedagoglarning refleksiv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish hamda kasbiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv pedagogning kasbiy salohiyatini saqlash, pedagogik munosabatlar sifatini yaxshilash va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda pedagog kasbiy deformatsiyalarining turli ta’lim bosqichlari, ish staji va kasbiy faoliyat sharoitlariga ko‘ra namoyon bo‘lish xususiyatlarini empirik jihatdan o‘rganish, shuningdek, raqamli ta’lim muhiti va sun’iy intellekt texnologiyalarining pedagoglarning kasbiy-psixologik holatiga ta’sirini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – Москва: Академия, 2013.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма учителя. – Москва: Просвещение, 1996.
6. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. – Москва: Флинта, 2014.
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2010.
8. Коджаспирова Г.М. Педагогика: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. – Москва: Гардарики, 2012.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2005.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 378.147:37.013.77



Abdurahmonova Mohinur Abdisodiq qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING DIDAKTIK KOMPETENSIYASINI MUSTAQIL TA’LIM ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta’lim orqali rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik imkoniyatlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etishni taqozo etmoqda. Tadqiqot davomida didaktik kompetensiyaning tarkibiy tuzilishi, mustaqil ta’limning pedagogik imkoniyatlari hamda uni rivojlantirish metodikasi ilmiy jihatdan asoslandi. Olingan natijalar mustaqil ta’limning bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va didaktik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: didaktik kompetensiya, mustaqil ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, innovatsion ta’lim.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы, педагогические возможности и практические механизмы развития дидактической компетентности будущих специалистов посредством самостоятельного обучения. В условиях современного образования, характеризующегося усилением роли компетентностного подхода, особую актуальность приобретает эффективная организация самостоятельной учебной деятельности будущих специалистов. В ходе исследования научно обоснованы структура дидактической компетентности, педагогические возможности самостоятельного обучения и методика её развития. Полученные

результаты показали, что самостоятельное обучение является важным фактором совершенствования профессиональной и дидактической подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: дидактическая компетентность, самостоятельное обучение, компетентностный подход, будущий специалист, профессиональная подготовка, педагогические технологии, рефлексия, инновационное обучение.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE DIDACTIC COMPETENCE OF FUTURE SPECIALISTS THROUGH INDEPENDENT LEARNING

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations, pedagogical potential, and practical mechanisms for developing the didactic competence of future specialists through independent learning. In the context of modern education, where the competency-based approach is becoming increasingly important, the effective organization of independent learning activities of future specialists is of particular relevance. The study scientifically substantiates the structure of didactic competence, the pedagogical potential of independent learning, and the methodology for its development. The findings demonstrate that independent learning is an important factor in improving the professional and didactic preparation of future specialists.

Keywords: didactic competence, independent learning, competency-based approach, future specialist, professional training, pedagogical technologies, reflection, innovative education.

Kirish. Jahon ta’lim tizimida yuz berayotgan integratsion jarayonlar, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish oliy ta’lim oldiga zamonaviy kasbiy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z faoliyatini samarali rejalashtira oladigan va kasbiy vaziyatlarda maqbul qarorlar qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Ayniqsa, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq kasblarda mutaxassisning nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash, ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish, boshqarish va natijalarini baholashga doir kompetensiyalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari tarkibida didaktik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Didaktik kompetensiya mutaxassisning ta’lim jarayonini maqsadga muvofiq loyihalash, uning mazmuni va metodlarini tanlash, ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, o‘quv natijalarini baholash hamda pedagogik faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuini anglatadi. Mazkur kompetensiya pedagogik faoliyatning samaradorligini belgilovchi asosiy kasbiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ayniqsa

bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida alohida o‘rin tutadi. Chunki pedagogning didaktik imkoniyatlari qanchalik rivojlangan bo‘lsa, uning ta’lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, turli pedagogik vaziyatlarga moslashish va ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning keng qo‘llanilishi talabaning mustaqil o‘quv faoliyatiga bo‘lgan talabni ham kuchaytirmoqda. Mustaqil ta’lim talabaning tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi bilangina cheklanmay, yangi bilim va ma’lumotlarni mustaqil izlash, ularni saralash, tahlil qilish, umumlashtirish, amaliy vaziyatlarda qo‘llash va o‘z faoliyati natijalarini baholash imkonini beradigan faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan mustaqil ta’lim bo‘lajak mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Mustaqil ta’lim jarayonida talaba o‘z faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quv maqsadini anglaydi, faoliyatini rejalashtiradi, zarur manbalarni izlaydi, olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi va natijalarni baholaydi. Bunday faoliyat didaktik kompetensiyaning kognitiv, motivatsion, operatsion va refleksiv jihatlarini birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng kirib kelishi mustaqil ta’limning mazmuni va imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Elektron ta’lim resurslari, raqamli kutubxonalar, masofaviy ta’lim platformalari va interaktiv vositalar talabaning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Pedagogika nazariyasida mustaqil ta’lim va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Biroq bo‘lajak mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini aynan mustaqil ta’limning mazmuni, shakllari va metodlari asosida tizimli rivojlantirish masalasi o‘zining ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini mustaqil ta’lim asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda uni tashkil etishning samarali metodik yondashuvlarini asoslashdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak mutaxassisning didaktik kompetensiyasini alohida bilim yoki ko‘nikma sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topgan yaxlit kasbiy sifat sifatida o‘rganish imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini pedagogika, psixologiya, didaktika va kasbiy ta’lim sohasidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish, pedagogik kuzatuv va refleksiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy manbalarni o‘rganish orqali didaktik kompetensiyaning mazmuni, tarkibiy tuzilishi va uni rivojlantirishning pedagogik

shart-sharoitlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil asosida mustaqil ta'limning an'anaviy va zamonaviy shakllari hamda ularning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida didaktik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlar ajratib olindi. Har bir komponentning mazmuni mustaqil ta'lim faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishning individual, juftlikdagi, guruhli va loyiha asosidagi shakllari hamda ularning didaktik kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot metodikasini ishlab chiqishda mustaqil ta'lim topshiriqlarining mazmuni talabalarning kasbiy ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi, topshiriqlar reproduktiv emas, balki izlanish, muammoli vaziyatni hal etish va ijodiy yondashuvni talab qilishi zarurligiga e'tibor qaratildi. Shu asosda mustaqil ta'lim jarayonini diagnostik, motivatsion, faoliyatga yo'naltirilgan va refleksiv bosqichlarda tashkil etish taklif qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari didaktik kompetensiya bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim komponentlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Mazkur kompetensiya ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy motivatsiya va o'z faoliyatini baholash qobiliyatining o'zaro integratsiyasini ifodalaydi.

Tahlillar asosida didaktik kompetensiyaning to'rtta asosiy komponenti aniqlandi. Birinchi komponent – motivatsion komponent bo'lib, u bo'lajak mutaxassisning pedagogik faoliyatga qiziqishi, kasbiy rivojlanishga ehtiyoji, mustaqil bilim olishga intilishi va o'z kasbiy imkoniyatlarini takomillashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyasini qamrab oladi. Mustaqil ta'lim jarayonida talabaning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi va ushbu maqsadga erishish yo'lini mustaqil belgilashi motivatsion faollikning oshishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi komponent – kognitiv komponent bo'lib, pedagogika, didaktika, metodika, ta'lim texnologiyalari va o'quv jarayonini tashkil etish qonuniyatlariga oid bilimlarni o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim orqali ilmiy adabiyotlar, elektron manbalar va metodik materiallarni o'rganish talabalarning nazariy bilimlarini kengaytirish bilan birga, ularni turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilishga ham o'rgatadi.

Uchinchi komponent – operatsion komponent bo'lib, ta'lim jarayonini rejalashtirish, maqsad va vazifalarni belgilash, metod va vositalarni tanlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda ta'lim natijalarini baholash kabi amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi. Mustaqil topshiriqlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, dars ishlanmalari va metodik loyihalar tayyorlash ushbu komponentning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchi komponent – refleksiv komponent bo'lib, mutaxassisning o'z faoliyati va erishgan natijalarini tahlil qilishi, xatolarini aniqlashi, faoliyatiga baho berishi va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashi bilan tavsiflanadi. Refleksiv

faoliyat mustaqil ta'limning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabaning o'z ta'lim jarayoniga ongli munosabatini shakllantiradi.

Mustaqil ta'lim orqali didaktik kompetensiyani rivojlantirishning birinchi bosqichi diagnostik bosqich sifatida belgilandi. Ushbu bosqichda talabalarning mavjud bilimlari, pedagogik ko'nikmalari, mustaqil ishlash tajribasi va didaktik kompetensiyasining shakllanganlik darajasi aniqlanadi. Diagnostika natijalari keyingi bosqichlarda beriladigan topshiriqlarning mazmuni va murakkablik darajasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bosqich – motivatsion bosqich. Unda talabalarga mustaqil ta'limning kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati tushuntiriladi, ularning kasbiy qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. Kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, muammoli savollar va amaliy misollardan foydalanish talabalarning mustaqil faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Uchinchi bosqich – faoliyatga yo'naltirilgan bosqich bo'lib, bunda talabalar bevosita mustaqil topshiriqlarni bajaradilar. Ilmiy va metodik adabiyotlarni o'rganish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, dars loyihalarini ishlab chiqish, interfaol metodlarni tanlash, kichik loyihalar tayyorlash va ta'limiy materiallar yaratish kabi faoliyat turlaridan foydalaniladi. Mazkur bosqichda nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan bog'lanishi ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich – refleksiv bosqich bo'lib, bunda talabalar bajarilgan topshiriqlar, erishilgan natijalar va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tahlil qiladilar. O'z-o'zini baholash, o'zaro baholash, refleksiv kundalik yuritish yoki elektron portfolio shakllantirish kabi vositalar talabaning o'z faoliyatini anglashiga yordam beradi.

Tadqiqot tahlillari mustaqil ta'lim samaradorligi, avvalo, uning mazmuni va tashkil etilish sifatiga bog'liqligini ko'rsatdi. Agar mustaqil topshiriqlar faqat tayyor ma'lumotlarni qayta bayon qilishga yo'naltirilsa, ularning kasbiy kompetensiyani rivojlantirish imkoniyati cheklanadi. Aksincha, muammoli, amaliy, tadqiqotga yo'naltirilgan va ijodiy topshiriqlar talabaning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilishi va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim talabaning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim jarayonida talabaning faolligi va mas'uliyatini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatga yaqin amaliy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mustaqil ta'limning asosiy imkoniyatlaridan hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim jarayonida talaba ko'pincha tayyor bilimlarni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, mustaqil ta'limda u bilimlarni izlovchi, tahlil qiluvchi, tizimlashtiruvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi faol subyektga aylanadi. Bu holat didaktik kompetensiyaning rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Chunki bo'lajak mutaxassis kelgusidagi kasbiy faoliyatida tayyor metodik ko'rsatmalarni

takrorlash bilan cheklanib qolmasdan, muayyan pedagogik vaziyatdan kelib chiqib, ta'lim maqsadiga mos metod, vosita va faoliyat shaklini mustaqil tanlay olishi kerak.

Mustaqil ta'limning didaktik kompetensiyani rivojlantirishdagi yana bir muhim jihati nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlashdan iborat. Talaba pedagogik adabiyotlarni o'rganish bilan bir qatorda, o'zlashtirgan nazariy bilimlarini dars loyihasi, pedagogik vaziyat, metodik ishlanma yoki amaliy topshiriq orqali sinab ko'radi. Natijada bilimlar amaliy ko'nikmaga, amaliy ko'nikmalar esa kasbiy kompetensiyaga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi mustaqil ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Elektron ta'lim platformalari, raqamli kutubxonalar, videodarslar, virtual seminarlar va interaktiv resurslar talabalarga ta'lim materiallaridan istalgan vaqtda foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli muhitda axborot hajmining ortib borishi talabalardan axborotni tanlash, uning ishonchliligini baholash va turli manbalarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini ham talab etadi. Demak, raqamli mustaqil ta'lim didaktik kompetensiya bilan bir qatorda axborot va raqamli kompetensiyalarning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Biroq mustaqil ta'limni talabaning o'z holiga tashlab qo'yilgan faoliyati sifatida tushunish maqsadga muvofiq emas. Uning samaradorligi o'qituvchining metodik rahbarligi, aniq topshiriqlar berishi, maslahat va teskari aloqani yo'lga qo'yishi bilan bevosita bog'liq. O'qituvchi mustaqil ta'lim jarayonida tayyor bilim beruvchi emas, balki talabaning faoliyatini yo'naltiruvchi, zarur metodik yordam ko'rsatuvchi va rivojlanish natijalarini baholovchi subyekt sifatida ishtirok etadi.

Shuningdek, mustaqil ta'limni tashkil etishda topshiriqlarning individual xususiyatlarga mosligi muhim ahamiyatga ega. Talabalarning tayyorgarlik darajasi, qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish ularning mustaqil faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, loyiha, tadqiqot, keys, muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarning faqat bilimlarini emas, balki amaliy va refleksiv ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, didaktik kompetensiyani mustaqil ta'lim asosida rivojlantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich va tizimli jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Mazkur jarayon auditoriya mashg'ulotlari bilan chegaralanmay, talabaning mustaqil izlanishi, amaliy faoliyati, pedagogik tajribasi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari bilan uzviy bog'lanishi zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari bo'lajak mutaxassislarning didaktik kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'lim muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Mustaqil ta'lim talabaning bilimlarni izlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirib, uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi.

Didaktik kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning izchil rivojlanishi bo'lajak

mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu asosda taklif etilgan diagnostik, motivatsion, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv bosqichlardan iborat metodik yondashuv mustaqil ta’limni maqsadli va tizimli tashkil etish imkonini beradi.

Mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish uchun topshiriqlarni kasbiy faoliyatga yo‘naltirish, muammoli va ijodiy xarakterdagi vazifalardan foydalanish, individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish hamda muntazam teskari aloqani ta’minlash muhimdir. Raqamli ta’lim vositalaridan oqilona foydalanish esa mustaqil faoliyatning mazmuni va shakllarini kengaytirib, talabalarning zamonaviy axborot muhitida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Umuman olganda, didaktik kompetensiyani mustaqil ta’lim asosida rivojlantirish bo‘lajak mutaxassislarni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashning samarali yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga izchil tatbiq etish talabalarning kasbiy mustaqilligi, pedagogik fikrlashi va o‘z faoliyatini refleksiv baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida mustaqil ta’lim asosida didaktik kompetensiyani baholash mezonlarini takomillashtirish, raqamli ta’lim vositalarining imkoniyatlarini kengaytirish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish ushbu yo‘nalishdagi istiqbolli tadqiqotlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.
4. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2017.
5. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
6. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – Москва, 2014.
7. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании. – Москва: Эйдос, 2015.
8. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. – Москва: Академия, 2018.
9. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – Москва: Просвещение, 2019.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
8-son

UDK: 373.3:37.091.3:5/6



Quyliyeva Sunbula Anvar qizi,
Xalqaro innovatsion universiteti
pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY VA MANTIQIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda STEAM yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashning nazariy asoslari, boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati hamda STEAM ta’limining integrativ xususiyatlari o‘rganildi. Tajriba-sinov natijalari STEAM asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning tahliliy fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarni baholash va samarali qaror qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

Kalit so‘zlar: STEAM ta’limi, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, kompetensiya, innovatsion pedagogika, integratsiya, kreativlik, muammoli ta’lim, bilish faoliyati.

ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ КРИТИЧЕСКОГО И ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ STEAM-ПОДХОДА

Аннотация. В статье проанализированы педагогические возможности STEAM-подхода в формировании компетенций критического и логического мышления у учащихся начальных классов. Рассмотрены теоретические основы критического и логического мышления, их значение в начальном образовании, а также интегративные особенности STEAM-образования. Результаты экспериментально-апробационной работы подтвердили, что образовательный процесс, организованный на основе STEAM-подхода, оказывает положительное влияние на развитие у учащихся аналитического мышления, способности формулировать выводы на основе доказательств, оценивать проблемные ситуации и принимать эффективные решения.

Ключевые слова: STEAM-образование, начальное образование, критическое мышление, логическое мышление, компетенция, инновационная педагогика, интеграция, креативность, проблемное обучение, познавательная деятельность.

DEVELOPING CRITICAL AND LOGICAL THINKING COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE STEAM APPROACH

Abstract. This article analyzes the pedagogical potential of the STEAM approach in developing critical and logical thinking competencies among primary school students. The theoretical foundations of critical and logical thinking, their significance in primary education, and the integrative characteristics of STEAM education are examined. The results of the experimental study confirmed that an educational process organized through the STEAM approach has a positive impact on students' analytical thinking, ability to draw evidence-based conclusions, evaluate problematic situations, and make effective decisions.

Keywords: STEAM education, primary education, critical thinking, logical thinking, competence, innovative pedagogy, integration, creativity, problem-based learning, cognitive activity.

Kirish. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, ularni mustaqil fikrlash, axborotni izlash va tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni baholash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda o'z qarorlarini asoslashga o'rgatishdan iborat. Shu jihatdan o'quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatini belgilovchi muhim mezonlardan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy ta'lim amaliyotida o'quvchining bilimlarni qancha miqdorda yod olgani emas, balki ularni yangi va nostandart vaziyatlarda qo'llay olishi, mavjud ma'lumotlarni taqqoslashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi va muammoning maqbul yechimini topa olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish umumiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich ta'lim shaxsning intellektual va bilish rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, tasniflash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash kabi tafakkur operatsiyalari faol shakllanadi. O'quvchining keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan boshlang'ich sinflarda shakllangan fikrlash strategiyalariga bog'liq. Shuning uchun mazkur davrda tanqidiy va mantiqiy

fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

So‘nggi yillarda ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi ana shunday pedagogik imkoniyatlardan biridir. STEAM ta’limi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini o‘zaro integratsiyalash orqali o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Mazkur yondashuvning asosiy xususiyati o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan, tajriba o‘tkazadigan, muammoni hal qiladigan va yangi mahsulot yaratadigan faol subyekt sifatida shakllantirishdan iborat.

STEAM yondashuvida muammoli vaziyatlar, loyiha faoliyati, tajriba va eksperimentlar, modellashtirish, konstruktorlik topshiriqlari, guruhli ishlar hamda refleksiv faoliyatning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Xususan, o‘quvchi muammoni aniqlash, taxmin ilgari surish, ma’lumot to‘plash, mavjud variantlarni taqqoslash, tajriba o‘tkazish, natijalarni baholash va xulosa chiqarish jarayonida tanqidiy hamda mantiqiy fikrlash elementlarini amalda qo‘llaydi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda STEAM yondashuvi asosida tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarida tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda STEAM yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda samarali metod va vositalarni asoslash.

Metodologiya. Tadqiqot kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan hamda konstruktivistik yondashuvlar asosida tashkil etildi. Tadqiqotning metodologik asosini o‘quvchining faol bilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, fanlararo integratsiyani ta’minlash, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish va bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida egallash tamoyillari tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda STEAM ta’limining mazmuni va metodlarini belgilash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy o‘rganish va tahlil qilish, ilmiy manbalarni qiyoslash, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, tajriba-sinov hamda o‘quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish kabi metodlardan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali STEAM yondashuvining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi imkoniyatlari o‘rganildi, shuningdek, o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faolligi va fikrlash xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyati, tadqiqot predmeti sifatida esa STEAM yondashuvi asosida tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni belgilandi.

O‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini aniqlashda ularning muammoli vaziyatni anglash va muammoni to‘g‘ri belgilash, kerakli ma’lumotlarni izlash, saralash va tahlil qilish, obyekt hamda hodisalarni o‘zaro taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, mavjud dalillarni baholash va o‘z fikrini asoslash qobiliyatlariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, o‘quvchining mustaqil qaror qabul qilishi, mantiqiy xulosa chiqarishi, bir muammoga nisbatan bir nechta yechim variantlarini ilgari surishi, o‘z nuqtayi nazarini himoya qila olishi hamda bajarilgan faoliyat natijalarini baholab, o‘z faoliyatiga refleksiv munosabat bildirish darajasi ham hisobga olindi.

Tajriba-sinov ishlari davomida STEAM yondashuvining mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan loyiha metodi, muammoli ta’lim, tadqiqotchilik faoliyati, tajriba va eksperimentlar, modellashtirish, konstruktorlik topshiriqlari, guruhli muhokama hamda refleksiya usullaridan kompleks ravishda foydalanildi. Bunda o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishiga emas, balki kuzatish, savol qo‘yish, taxmin ilgari surish, amaliy harakatlarni bajarish, olingan natijalarni taqqoslash va ular asosida xulosa chiqarishiga alohida e’tibor qaratildi.

STEAM mashg‘ulotlarini tashkil etishda topshiriqlar o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga tamoyili asosida bosqichma-bosqich murakkablashtirib borildi. Dastlab kuzatish, taqqoslash, guruhlash va tasniflashga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini talab qiladigan muammoli vaziyatlar, loyiha topshiriqlari hamda o‘z yechimini dalillar asosida himoya qilishga yo‘naltirilgan faoliyat turlari kengaytirildi. Shu orqali o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari izchil ravishda rivojlantirib borildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim jarayonida STEAM yondashuvidan tizimli foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik sharoit yaratishini ko‘rsatdi.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchining axborot va dalillarni tahlil qilish, ularning ishonchliligini baholash, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va asoslangan xulosaga kelish qobiliyatini ifodalaydi. Mantiqiy fikrlash esa hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, sabab va oqibatni ajratish, mavjud dalillarga asoslangan holda izchil xulosa chiqarish hamda muammoning ratsional yechimini topish bilan tavsiflanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirishda amaliy faoliyatga asoslangan STEAM topshiriqlari alohida samaradorlikka ega. Chunki bunday topshiriqlar o‘quvchini fikrlashga, savol berishga, taxmin qilishga, tajriba o‘tkazishga va o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi.

Masalan, “Eng mustahkam qog‘oz ko‘prikni yaratish” loyihasi doirasida o‘quvchilarga ma’lum miqdordagi qog‘oz va boshqa oddiy materiallardan foydalanib, yuk ko‘tara oladigan ko‘prik konstruksiyasini yaratish vazifasi beriladi.

Bunda o‘quvchilar avvalo muammoni aniqlaydilar, turli konstruksiya variantlarini taklif qiladilar, materiallarning xususiyatlarini o‘rganadilar, tajriba o‘tkazadilar va olingan natijalarni taqqoslaydilar. Tajriba natijasida samarasiz variantlarni rad etib, maqbul yechimni tanlaydilar.

Mazkur faoliyat davomida o‘quvchilarda quyidagi fikrlash jarayonlari shakllanadi: muammoni anglash, taxmin ilgari surish, dalillar to‘plash, taqqoslash, sabab-oqibatni aniqlash, natijani baholash, xulosa chiqarish va o‘z qarorini asoslash.

Tadqiqot davomida STEAM faoliyatlarida muntazam ishtirok etgan o‘quvchilarning bilish va amaliy faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, ularda axborotni tahlil qilishga bo‘lgan faollik ortib, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, o‘z fikrini dalillar asosida ifodalash va muammoli vaziyatlarga turli yechimlarni taklif qilish ko‘nikmalari rivojlandi. Guruhli muhokamalar jarayonida o‘quvchilarning fikr almashishi, savollar berishi, o‘z qarashlarini asoslab berishi hamda boshqalarning fikrlariga munosabat bildirish faollashdi. Tajriba va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida natijalarni taqqoslash, ularni tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarining shakllanib borayotgani ham aniqlandi. Shu bilan birga, STEAM mashg‘ulotlari o‘quvchilarning ijodiy va konstruktiv fikrlashiga, topshiriqlarni bajarishda mustaqil yondashuvni namoyon etishiga hamda o‘z faoliyati natijalarini baholashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida STEAM faoliyatlarining amaliy va muammoli xarakteri o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi kuzatildi. Ayniqsa, topshiriqlarning real hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘langanligi o‘quvchilarga o‘zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatini yaxshiroq anglash imkonini berdi. Natijada o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, tajriba orqali tekshirish va o‘z xulosalarini shakllantirishga intildilar. Bu holat STEAM yondashuvi boshlang‘ich ta’limda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning bilish faolligi va ta’lim jarayonidagi mustaqilligini kuchaytirish uchun ham samarali pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari STEAM yondashuvida fanlararo integratsiyaning ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, oddiy konstruktorlik loyihasini bajarish jarayonida matematika orqali o‘lchash va hisoblash, tabiiy fanlar orqali materiallarning xususiyatlarini aniqlash, texnologiya orqali konstruksiya yaratish, san’at orqali uning tashqi ko‘rinishini loyihalash va muhandislik orqali konstruksiyaning mustahkamligini ta’minlash kabi faoliyatlar o‘zaro uyg‘unlashadi.

Natijada o‘quvchi alohida fanlar bo‘yicha olingan bilimlarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona muammoni hal qilish vositasi sifatida qo‘llashni o‘rganadi.

Muhokama. Olingan natijalar konstruktivistik ta’lim nazariyasi va faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvning asosiy g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim o‘quvchiga tayyor shaklda berilmaydi,

balki uning faol bilish faoliyati jarayonida shakllanadi. STEAM yondashuvida ham o‘quvchi muammoni mustaqil o‘rganadi, tajriba o‘tkazadi, turli yechimlarni sinab ko‘radi va o‘z faoliyati natijasida bilim hosil qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari ham STEAM yondashuvining amaliy imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi. Ushbu yosh davrida o‘quvchilarning amaliy faoliyatga, tajribaga, kuzatishga va vizual materiallarga qiziqishi yuqori bo‘ladi. Shuning uchun nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish ularning o‘quv materialini chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli savollar va ochiq topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. STEAM mashg‘ulotlarida bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lmagan topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarni turli variantlarni izlashga undaydi. Masalan, “Qaysi material ko‘prik uchun eng qulay?”, “Nima sababdan ayrim konstruksiyalar boshqalariga qaraganda mustahkamroq?”, “Ushbu modelni qanday qilib yanada takomillashtirish mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlashini faollashtiradi.

Loyiha faoliyati ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Loyiha jarayonida o‘quvchilar nafaqat yakuniy mahsulotni yaratadilar, balki uning yaratilish jarayonini rejalashtiradilar, muammolarni aniqlaydilar, qarorlar qabul qiladilar va o‘z faoliyatlarini baholaydilar. Shu jihatdan loyiha metodi o‘quvchilarning mustaqilligi va mas’uliyatini oshiradi.

Mantiqiy fikrlashning rivojlanishida kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va tasniflash kabi tafakkur operatsiyalarining izchil qo‘llanilishi muhimdir. STEAM topshiriqlari ushbu operatsiyalarni tabiiy ravishda o‘quv faoliyatiga kiritadi. Masalan, tajriba jarayonida o‘quvchi avval obyektni kuzatadi, keyin natijalarni taqqoslaydi, farqlarni aniqlaydi, sabablarni izlaydi va yakunda umumiy xulosaga keladi.

Shu bilan birga, STEAM yondashuvining samaradorligi faqat texnologiyalardan foydalanish bilan belgilanmaydi. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi, topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi, muammoli vaziyatlarning to‘g‘ri tanlanishi, o‘quvchilar faoliyatining muntazam baholanishi va refleksiya jarayonining tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi bu jarayonda tayyor javob beruvchi emas, balki o‘quvchilar faoliyatini yo‘naltiruvchi, savollar orqali fikrlashga undovchi va mustaqil xulosaga kelish uchun sharoit yaratuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish bilan birga, ularning kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

STEAM yondashuvining muhim jihatlaridan biri shundaki, u o‘quvchilarda bir-biridan alohida holda emas, balki o‘zaro bog‘liq va integratsiyalashgan tarzda bir qator kompetensiyalarning rivojlanishiga sharoit yaratadi. Bunday ta’lim jarayonida o‘quvchilar, avvalo, axborotni izlash, tahlil qilish, mavjud dalillarni

baholash va ular asosida asoslangan xulosalar chiqarish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini egallaydilar. Muammoli va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida esa voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, fikrlarni izchil tartibda bayon etish va mantiqiy xulosaga kelish qobiliyati, ya’ni mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Shuningdek, STEAM mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga turli vaziyatlarga yangicha yondashish, o‘z g‘oyalarini ilgari surish va nostandart yechimlarni izlash imkoniyatining berilishi ularning ijodiy fikrlashini kuchaytiradi. Muammoli vaziyatlar bilan ishlash davomida o‘quvchilar muammoning mohiyatini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni baholash, bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqish va ular orasidan eng maqbulini tanlashga o‘rganadilar. Tajriba, kuzatish va loyiha faoliyatiga asoslangan topshiriqlar esa tadqiqotchilik kompetensiyasining shakllanishiga xizmat qilib, o‘quvchilarda ma’lumot to‘plash, tajriba natijalarini qayd etish, ularni taqqoslash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

STEAM faoliyatining guruhli shaklda tashkil etilishi o‘quvchilarning kommunikativ va hamkorlik kompetensiyalarini ham rivojlantirishga imkon beradi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalash, tengdoshlarini tinglash, turli qarashlarni muhokama qilish va umumiy xulosaga kelish jarayonida samarali muloqot qilish hamda jamoada ishlash tajribasini egallaydilar. Shu bilan birga, bajarilgan topshiriqlar va erishilgan natijalarni tahlil qilish, o‘z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash hamda keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilash orqali refleksiv kompetensiya ham shakllanib boradi. Demak, STEAM yondashuvi boshlang‘ich ta’limda faqat fanlararo bilimlarni o‘zlashtirish vositasi bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarning tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashi, muammolarni hal qilish, tadqiqotchilik, kommunikativ, hamkorlik va refleksiv kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, STEAM yondashuvi faqat fanlararo integratsiyani ta’minlovchi metod emas, balki o‘quvchining intellektual, ijodiy, kommunikativ va amaliy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tizim sifatida qaralishi mumkin.

Biroq STEAM ta’limini boshlang‘ich ta’limga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, o‘qituvchilarning STEAM metodikasi bo‘yicha tayyorgarligining yetarli emasligi, zarur didaktik materiallar va jihozlarning cheklanganligi, dars vaqtining qisqaligi hamda topshiriqlarni baholash mezonlarining aniq ishlab chiqilmaganligi mazkur yondashuvning samaradorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli STEAM ta’limini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini rivojlantirish, amaliy topshiriqlar bankini yaratish va o‘quvchilarning tanqidiy-mantiqiy fikrlashini baholash mezonlarini takomillashtirish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda STEAM yondashuvi samarali

pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni tayyor bilimlarni passiv o‘zlashtirishdan faol izlanish, tajriba o‘tkazish, muammolarni hal qilish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Birinchidan, tanqidiy va mantiqiy fikrlash boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantirilishi lozim bo‘lgan muhim intellektual kompetensiyalar qatoriga kiradi. Ularning rivojlanishi o‘quvchilarning keyingi ta’lim faoliyati, mustaqil qaror qabul qilishi va yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

